

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

AXROROVA UMIDA XAMIDULLAYEVNA

**SOVET HOKIMIYATINING QULOQLASHTIRISH VA
JAMOALASHTIRISH SIYOSATI
(Namangan viloyati hududi misolida)**

5A220201 – O`ZBEKISTON TARIXI

Magistr darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy raxbar: t.f.n. A. A. Isoqboyev

Namangan - 2012

Tadqiqotda Namangan viloyatining sovet davri tarixini qiyosiy tahlil qilgan holda o`rganish orqali sovet tuzumining asl mohiyatini ochib berilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....3

I bob. Sovet hokimyatining jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosatining asosiy mohiyati va undan ko`zlangan asosiy maqsadlar

1.1. Sovet hokimyatining jamoalashtirish siyosatining asosiy mohiyati.....10

1.2. Quloqlashtirish siyosatini amalga oshirishning shartlari va maqsadlari.....19

II bob. Namanganda sovet hokimiyatining jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonlari

2.1. Namanganda sovetlarning jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosatini amalga oshirilishi.....30

2.2. “Quloq” qilingan oilalarni surgun qilish jarayoni.....40

III bob. “Quloq” qilingan oilalarning surgundagi hayoti

3.1. Xerson, Ukraina, Shimoliy Kavkaz va boshqa hududlarga surgun qilingan vatandoshlarimizning hayoti.....47

3.2. “Quloq” larning o`z Vatanlariga qaytarilish jarayonlari.....60

Xulosa

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston o`z mustaqilligini qo`lga kiritib, uni mustahkamlash va huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo`liga o`tdi. Mustaqillik tufayli Respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy hayotida tub o`zgarishlar ro`y berdi. O`zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa davr mobaynida milliy davlatchilikni barpo etish, bozor iqtisodiyotiga o`tish, xalqaro munosabatlarni yo`lga qo`yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng tarix fani sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol tufayli o`zbek xalqining ko`p mingyillik tarixini tiklash, xolisona tadqiq etish va uni xalqqa yetkazish borasida qator ijobiy natijalar qo`lga kiritildi. Mamalakat ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy hayotidagi sifat o`zgarishlariga hamohang tarzda tarixshunoslikda ham yangicha rux va mazmunga, milliy tadqiqotlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning bir qator asarlarida ham o`zlikni anglash, inson dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fanining o`rniga yuksak baho berib, “Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng asosiy manba - bu haqqoniy yaratilgan tarixdir”¹. “O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q” - deb ta`kidlagan edi”².

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси — халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. — Т.: Ўзбекистон, 2000. — Б.34.

² Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008. — Б. 4.

Bugungi kunda yurtning tarixi, qadimiy madaniyati takomillashmoqda va u mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda o'z tarixini chuqur bilgan, undan ruxiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmazligiga alohida e'tibor qaratgan O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tarixchi olimlarni haqqoniy tarixni tiklash, xalqni va millatni ana shu tarix bilan qurollantirishga da'vat etdi¹.

Ushbu da'vatga javoban, tarixchi olimlarning izlanishlari natijasida qator tuman va viloyatlar tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi. Respublika tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar, jumladan, Namangan viloyati misolida o'rganish, shubhasiz o'tmishni yanada chuqur, to'laqonli va mukammal yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi. Namangan viloyati o'zining tutgan o'rni, salohiyatiga ko'ra, Respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov e'tirof etganidek: "... Namangan xalqi o'ziga xos xususiyatlarini, o'z tarixi, an'ana va urf-odatlarini ... asrlar mobaynida saqlab kelmoqda ... Namangan viloyati mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatida, ma'naviy va madaniy rivojida ko'p jihatdan yetakchi o'rinni egallaydi"².

Shuningdek, Prezident I. A. Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida keltirilgan mana bu oqilona fikrlar ham tadqiq etilayotgan muammoning nazariy jihatdan ahamiyatga egaligi bilan ham xarakterlidir: "Men shuni aytishim kerakki, bizga zarba bo'lib tushgan eng og'ir tanglik iqtisodiy tanglik emas, ma'naviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini g'oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko'ra ancha mashaqqatli bo'ladi"³.

Xalqning bosib o'tgan qariyb bir asrlik tarixiga faqat salbiy voqealar davri deb qaramaslik, balki bu yaqin o'tmishga holisona baho berish, bugunning vazifasidir. Umuman, tarixni, ajdodlar qoldirgan boy merosni ro'yi-rost, holisona o'rganib, adolat bilan tadqiq va talqin qilish bosh mezon bo'lmog'i kerak. Tarixni chuqur idrok etish kishilarda yo'l qo'yilgan hatolarni takrorlamaslik, undan saboq chiqarib, bugungi kun va kelajak uchun fidokorlik hissini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda Namangan viloyatining sovetlar davri tarixi hozirga qadar chuqur, atroflicha o'rganilmaganligini ta'kidlab o'tish joiz. Viloyatlar, xususan, Namangan viloyatining sovet tuzumi va mustaqillik yillaridagi tarixini qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganishning o'z afzalliklari va ahamiyatli jihatlari bor. Bu orqali birinchidan, o'zbek xalqi istiqbolni tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan bo'lasada, mustaqillik uchun olib borilgan say-harakatlar ildizi uzoq tarixga borib taqalganligini, yurt vatanparvarlari ozodlik yo'lida yashirin va oshkora, zarur bo'lgan holda esa qurol kuchi bilan kurash olib borganliklarini, mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini holisona o'rganishga imkoniyat yaratilganligini keng jamoatchilikka asoslab berish imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchidan, bugungi kunda o'tmish merosi va jahon xalqlari tarixiy tajribasiga asoslangan holda mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirishga keng yo'l berilayotganligi, iqtisodiy islohotlar mazmunining, tadbirkorlik va hususiy mulkchilikning rivoji uchun ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik mohiyatini, bundan ko'zlangan maqsad faqat bitta xalq farovonligi ekanligini chuqurroq anglab yetmoq uchun yaqin o'tmishimizdagi "jamoalashtirish", "quloqlashtirish" hamda "ommaviy qatag'on" jarayonlarining fojiali oqibatlarini ayrim hududlar misolida tahlil qilib undan xulosa chiqarish ayni muddaodir. Shu sababli sovetlarning O'zbekistonda xususan, Namangan viloyatida olib borgan "jamoalashtirish" va "quloqlashtirish" tarixini o'rganish hozirgi tarix fani oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun ham bu tadqiqot ishining mavzusi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 24-25.

² Каримов И.А. Шу муқаддас юртга ёруғ кунлар келтириш – ҳар биримизнинг инсоний бурчимиздир // Озод ва Обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. Т. №8. – Б. 181.

³ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 263.

Mavzuning o'rganilish darajasi. 1917-yil Sovet hokimiyatining o'rnatilishi va keyingi yillardagi "quloqlashtirish" va "jamoalashtirish" jarayonlari Namangan viloyati misolida hali etarli darajada o'rganilmagan. Namangan viloyatining tashkil topgunigacha bo'lgan davri tarixi Farg'ona vodiysi tarixiga oid ayrim manbalarda u yoki bu hollarda qisqa tarzda yoritilgan. Shu bois tadqiqot natijalariga ko'ra, mavzu tarixshunosligini ikki davrga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Sovet davrida yaratilgan adabiyotlar, viloyat tarixiga oid olib borilgan tadqiqotlar va davriy matbuotda e'lon qilingan maqolalar;
2. Mustaqillik davrida yaratilgan adabiyotlar, ilmiy izlanish va tadqiqotlar.

Turkiston o'lkasida "oktabr voqealari" ga qadar va undan so'ng chop etilgan davriy matbuot nashrlarida Namanganda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar qisman o'z aksini topgan bo'lib, ularda bir-biriga qarama qarshi bo'lgan ruhiyat o'z ifodasini topgan. Ushbu davrga oid milliy matbuot nashrlarida tarixiy sharoit va milliy ruh haqqoniy tarzda o'z ifodasini topgan bo'lsa, sovet hukumatining davriy nashrlarida o'lkadagi, xususan, Namangandagi bolsheviklar hokimiyatining turli yo'llar bilan mustahkamlashga bo'lgan urinishlar haqida ma'lumotlar berilgan. XX asrning 20-40 yillarida viloyat tarixiga oid fundamental ilmiy asarlar yaratilmagan. Bu holatni Namangan viloyatining rasman 1941 yilda tashkil topganligi bilan izohlash mumkin. XX asrning 50-60 yillariga kelib esa kichik hajmdagi ba'zi adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu davrda chop etilgan adabiyotlardan Z.Akromovning "Namangan oblasti" tarixiy geografik mavzudagi risolalarini keltirish mumkin. XX asrning 60-yillarida viloyat tarixiga oid ba'zi maqolalar chop etilgan. XX asrning 70-yillariga kelib Namangan viloyatiga oid ayrim ilmiy adabiyotlar chop etildi.

Masalan, G.R. Asanovning¹, T. Ro'ziboyev va M. Xojimirzayevlarning² asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlar kommunistik mafkura manfaatlari doirasida yozilgan bo'lishiga qaramay, bu mavzu tarixshunosligida muhim o'rin tutadi. XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan e'tiboran, sobiq sovet jamiyatida boshlangan "qayta qurish" oqibatida xalq o'tmishiga baho berishda ma'lum ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo sovet jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy tanglikning yechimini topishga bag'ishlangan risola, tadqiqot va maqolalarda o'z aksini topdi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, mavzu tarixshunosligining ikkinchi davridagi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingina viloyat tarixini xolisona o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Istiqlol yillarida Namangan viloyatining sovet davri tarixiga oid tadqiqotlar va ayrim tumanlarni tarixini o'rganish borasida bir qator ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bularga misol qilib Z.M. Bobur³, Y.Qosimov⁴ va Q.Rajabovlarning⁵ ilmiy izlanishlarini keltirib o'tish mumkin. Shuningdek, Namangan viloyatining sovet davri tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshidagi O'zbekistonning yangi tarixi markazi tomonidan nashr etilgan "O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida"⁶ deb nomlanuvchi ikkinchi kitobining tahliliy ma'lumotlari ham g'oyat qimmatlidir. Istiqlol yillarida sovetlarning kollektivlashtirish, quloqlashtirish va qatag'on siyosatiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar paydo bo'ldi⁷.

¹ Асанов Г. П. Сельское расселение Наманганской области. – Т.: Фан, 1975.

² Рўзібоев Т., Хажимирзаев М. Наманган области : Справочник. –Т.: Ўзбекистон, 1981.

³ Хайдаров З.У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: Қиёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007.

⁴ Қосимов Ў. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990.

⁵ Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мунозаралар. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000.

⁷ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001.; ўша муаллиф: Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. – Т.: 2003; ўша муаллиф: Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарқ, 2001.

Bu o'rinda R. Shamsutdinov olib borilgan tadqiqotlar e'tiborga loyiqdir. Bu tadqiqotlarda XX asrning 30-yillarida o'zbek qishlog'ida amalga oshirilgan fojeali jarayonlar yoritib berilgan.

Ular dehqon xo'jaliklarini zo'rlik bilan kolxozga kiritish, ularning bir qismini quloqqa tortish, qatag'on qilish va surgun etish kabi jarayonlarni aniq tasavvur etishda katta ahamiyat kasb etadi. R. Shamsutdinov ushbu tadqiqot asarlarini dala materiallari, jonli muloqotlar, shahsiy kuzatuvlar, "Meros" ekspeditsiyasining to'plagan ma'lumotlariga tayangan holda yaratgan. Asarlarning tarixshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatliligi shundaki, ularda mazkur jarayonlarning xalq uchun fojeali jihatlari ochib berilgan hamda kitobdagi ma'lumotlar Ukraina, Rossiya va qo'shni respublikalar davlat arxivlaridagi xujjatlar asosida bayon etilgan. XX asrning 30-yillarida butun mamlakatda bo'lganidek, Namangan hududi ham sovetlarning qatag'on girdobiga tortildi. So'nggi yillarda tarixning bu davrlari ham ma'lum darajada ochib berildi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot ishning davriy chegarasi etib, Sovetlar hokimyat tepasiga kelishidan, ya'ni 1917-yildan XX asrning 30-yillari oxirlarigacha bo'lgan davr belgilanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Namangan viloyatining sovet davri tarixini qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganish orqali sovet tuzumining asl mohiyatini ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- tadqiqotda sovet hokimyatining Namanganda zo'rlik bilan o'rnatilishi va unga qarshi olib borilgan kurashlar tarixini yoritib berish;
- XX asrning 20-30 yillarida sovetlar tomonidan amalga oshirilgan jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati va uning asl mohiyatini ochib berish;
- shuningdek, Namanganda sovetlarning olib borgan jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati va uning ayanchli oqibatlarini keng yoritib berish;
- sovetlar tomonidan amalga oshirilgan jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati natijasida turli hududlarga surgun qilingan mahalliy xalq vakillarining og'ir qismlari haqida to'htalib o'tish;
- tadqiqot natijalari bo'yicha zarur xulosalar berish.

Tadqiqotning uslubiy asosi. Ilmiy ishni yozish jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va milliy mafkura nuqtai nazaridan yondashildi. Shu bilan birgalikda Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari bo'lib, asosan mustaqillik yillarida yozilgan ilmiy maqolalar, asarlar, ilmiy tadqiqot ishlari hamda davriy matbuot materiallari, shuningdek, Namangan viloyati arxivi manbalari xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki: tadqiqotchi tomonidan mavzuni yoritishda ilk bor arxiv hujjatlaridan foydalangan holda barcha ma'lumotlarni umumlashtirib xolisona tahlil etib berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishidagi ilmiy xulosalardan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda hamda ijtimoiy fakul'tet professor o'qituvchi va talabalari uchun maxsus kurs ma'ruzalari tayyorlashda va ilmiy-nazariy konferensiya, seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tarkibi. Tadqiqotning tarkibi kirish, uch bob, xulosa, fodalanihgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. SOVET HOKIMYATINING JAMOALASHTIRISH VA QULOQLASHTIRISH SIYOSATINING ASOSIY MOHIYATI VA UNDAN KO'ZLANGAN ASOSIY MAQSADLAR

1.1. Sovet hokimyatining jamoalashtirish siyosatining asosiy mohiyati

1929-yil tarixga qora belgi ostidagi “buyuk burulish yili” deb nom olgan yil boʻlib kirib keldi. Bu dehqonlar sinfini ijtimoiy qatlam va mehnatkash omma sifatida maqsadli yoʻq qilishning boshlangʻich davri edi. Bunda “quloqlar” va “boylar” toifasiga asosan yangi iqtisodiy siyosat sharoitida oʻz xoʻjaliklarini oyoqqa turgʻazib olgan oʻrtahol dehqonlar kiritildi. Chunki birmuncha badavlatroq qatlamlar oldingi yillarda tugatilgan edi.

1929-yilning yozida “quloqlar” ni jamoa xoʻjaliklariga (kolxoz) kiritilishini taʼqiqlovchi qaror qabul qilinadi. Oʻsha yilning 7-noyabrida “xalqlar otasi” Stalinning matbuotda bosilib chiqqan “Buyuk burulish yili” nomli maqolasi hamda 27-dekabrda qishloq xoʻjalik xodimlarining ilmiy konferensiyasida soʻzlagan nutqi quloqlarni sinf sifatida tugatish va jadal jamoalashtirish siyosatini boshlab berdi¹.

Yoppasiga jamoalashtirish bu boy va oʻrtahol dehqonlarga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xoʻjalik mahsulotlari va urugʻ zaxiralarini tortib olish hisobiga kolxozlar tuzish degani edi. Ommaviy jamoalashtirish gʻoyasi, umuman olganda, “Lenincha kooperativ reja” da oʻz ifodasini topgan boʻlib unda dehqonlarni bosqichma - bosqich kooperatsiyalash yoʻli taklif qilingan edi, u dehqonlarning eng oddiy shakllar orqali yuqori va murakkab shakl boʻlgan jamoa xoʻjaliklariga birlashuvini nazarda tutardi².

1929-yilning kuzidan eʼtiboran sovet davlati kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud boʻlgan bir qancha kooperativ tizimlarini davlatlashtirish yoʻliga oʻtdi. Kooperatsiyani barcha turlari va sohaları boʻyicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yoʻli bilan almashtirdi. Bu yoʻl esa ixtiyoriylik prinsplari asosida emas, balki “yuqoridan belgilash” yoʻli bilan amalga oshiriladi. Oʻzbekistonda jamoalashtirish Oʻz KP MK ning 1930-yil fevralda qabul qilingan “Kollektivlashtirish va quloq xoʻjaliklarini tugatish” toʻgʻrisidagi qarori eʼlon qilingandan soʻng boshlab yuborildi. Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekistonning sovet davri tarixidagi yaxshi oʻrganilmagan mavzulardan biri jamoalashtirish va u bilan bogʻliq quloqlashtirish, surgun qilish davri tarixi masalasidir. Zoʻrlilik bilan, kuch bilan oʻtkazilgan jamoalashtirish jarayoni qanday kechgan boʻlsa, shundayligicha ochib berish va

¹ Ўзбекистон тарихи / Холбоев С. ва бошқ. муҳаррир Р. Ҳ. Муртазаева. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б.449.

² Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 347.

qatag`on etilib surgun qilingan dehqonlarning ayanchli, fojeali ahvoli, taqdirini tadqiq etish hozirgi O`rta Osiyo tarixshunosligida dolzarb muammolardan biridir.

Komfirqa va sovetlar hukmronligi davrida “quloq”, “mushtumzo`r”, “qishloq burjuaziyasi”, “aksilinqilobchilar”, “xalq dushmanlari”, “sotsializm dushmanlari”, “kolxoz dushmanlari”, “yot unsurlar”, “kapitalistik unsurlar”, “eng so`nggi ekspulattatorlar” kabi nomlar atalib kelingan milliy qishloq aholisining haqiqiy tarixini yaratish imkoni bo`lmadi va bu mavzu ommadan sir saqlanib kelindi¹.

Stalinning 1929-yil 7-noyabrida bosilib chiqqan “Buyuk burulish yili” nomli maqolasi jadal jamoalashtirishni “nazariy” jihatdan asoslab berdi. Unda, keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb yozilgan edi. VKP (b) MQ ning 1929-yilgi noyabr plenumi “dohiy” fikrini partiya direktivasiga aylantirdi. Plenum jamoalashtirish sur`atlarini haddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani qo`ydi. 1929-yil 27-dekabrda agrar markschilar konfrensiyasida so`zga chiqqan Stalin “yoppasiga jamoalashtirish asosida quloqlarni sinf sifatida tugatish” shiorini e`lon qildi².

Hokimiyat organlari “dohiy”ning ko`rsatmasini bajarish uchun jadal jamoalashtirishning boshida turib asosan zo`ravonlik usullariga e`tiborni kuchaytirdilar. Qishloqda an`anaviy iqtisodiy munosabatlarni yoppasiga buzish avj oldirildi. Davlat qishloq mehnatkashlariga qancha va nima ekishni, yetishtirilgan mahsulotni qanday narx bilan topshirishni aytib turadigan bo`ldi. Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg`inlar uyushtirildi, qishloqda aholini zo`rlilik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi. Agrar siyosatdagi yangi yo`l O`zbekistonda og`ir oqibatlarini keltirib chiqardi. VKP (b) MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi “Jamoalashtirish sur`atlari va davlatning kolxoz qurilishiga yordam ko`rsatish choralari to`g`risida” gi qarorining dastlabki taxririda O`zbekiston SSSR hududida jamoalashtirishni ikkinchi besh yillik mobaynida tugallash mo`ljallangan bo`lishiga qaramay, bu harakat ertaroq tugallanishi mumkin degan fikrni o`rtaga tashladi. Shuni ham aytib o`tish joizki, respublikamizning ayrim rahbarlari (xususan, F. Xo`jayev va A. Akromov) valyuntaristik usullarga qarshi turishga intildilar va raqamlarga va muddatiga tuzatish kiritish fikrini bildirdilar. Biroq ularning takliflariga umuman e`tibor berilmagan. Natijada VKP (b) MQ O`rta Osiyo byurosining qarori bilan 1932-yilning boshlariga kelib dehqon xo`jaliklarining 68% ni kolxozlarga birlashtirish rejasi qabul qilindi. Jamoalashtirishni sun`iy tezlashtirish va bu borada “sotsialistik musobaqa” ning kim o`zdi “poygasini” avj oldirishda VKP (b)MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi “Jamoalashtirish sur`ati va kolxoz qurilishida davlat yordami berish tadbirlari to`g`risida” gi qarori hal qiluvchi o`rin tutdi³.

Mazkur qarorda sobiq SSSR hududi uch guruh rayonlarga bo`lindi va qaysi hudud qachon jamoalashtirishni tugallashi rejalashtirildi va u jamoalashtirishni 1933-yil bahorida tugallashi kerak edi. Yoppasiga jamoalashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika va viloyat shtablari tuzildi. Hamma joyda ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari harakatga keltirildi. Qishloq aholisini kolxozlarga “g`ayratlantirish” uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. VKP (b) MQ 1929-yil noyabr plenumi qarori bilan “yakka xo`jalik” qishloqlariga kamida 25 ming ishchini yuborish taklif etildi, ular joylarda “agrar inqilobni avj oldirishni ta`minlashlari” lozim edi. Xususan, O`zbekistonga Rossiyaning markaziy rayonlaridan 437 ishchi yuborildi⁴.

Ular bilan birgalikda mahalliy ishchilar sinfi o`z saflaridan 263 kishini jalb qildi. “Yigirma besh mingchi” ishchilar partiya tashkilotlariga kolxozlar tuzishda yordam ko`rsatdilar,

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.8.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 347.

³ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.54.

⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 347.

kambag'al faollarni "quloqlar"ga qarshi birlashtirdilar, qishloq xo'jaligi va mahalliy sharoit haqida umuman tasavvurga ega bo'lmasada, "yigirma besh mingchi" ishchilar yangi tashkil etilgan qishloq xo'jalik artellariga boshchilik qildilar. Oqibatda, shoshma-shosharlik bilan dastlab tashkil qilingan kolxozlarning ko'pchiligi ishni eplay olmay tarqalib ketdi. Jamoa xo'jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo'jaliklariga bevosita hujum qilish amaliy jihatdan buzg'unchilik harakatiga aylanib ketdi. Raqamlar ortidan quvish boshlandi. Sovet davlatining hamma joyida bo'lgani kabi O'zbekistondagi jamoalashtirish ham "harbiy kommunizm" yillarida sinovdan o'tgan kompaniyabozlik, "hujum va tazyiq" usullari bilan amalga oshirildi. Dehqonlar zo'rlik bilan kolxozlarga kirishga majbur edilar. Qarshilik ko'rsatganlar ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar "quloq qilindi". Ko'pincha qishloqlarning aholisini bu yerdan ko'chirib yuboramiz, oziq-ovqat ta'minotidan, suvdan mahrum etamiz, deb qo'rqitib kolxozlarga yozilishga majbur qildilar. Shunday hollar ham bo'lar ediki, kolxozlarni tashkil etish u yoki bu qishloqdagi deyarli dehqon xo'jaliklarining kolxozga kirish-kirmaslik istagidan qat'i nazar sun'iy ravishda varaqa to'ldirishdan iborat bo'lardi. Kolxozlar tuzilishi uch shaklda olib boriladigan bo'ldi. Birinchisi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish shirkati bo'lib, unda butun qishloq xo'jalik inventarlari, ot-ulov, tortuv kuchlari va yerni birgalashib ishlovchilar umumlashtirilgan. Ikkinchisi qishloq xo'jaligi arteli bo'lib bunda barcha ishlab chiqarish vositalari, yer va butun ishlab chiqarish jarayoni umumlashtirilgan. Uchinchisi qishloq xo'jalik kommunasi bo'lib, u ijtimoiy ishlab chiqarish va dala taqsimotdan iborat bo'lgan. Dala ishlari boshlangunga qadar kolxozlar tuzish masalasi bilan bog'liq barcha tadbirlar tuzilajak kolxozlar hududlarida amalga oshirilishi kerak edi. VKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi 1930-yil 28-yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida qaror qabul qiladi. Qarorda kolxozchilik harakati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini tez sur'atlar bilan texnikaviy (traktarlarni, murakkab qishloq xo'jalik mashinalarini joriy etish) jihatdan qayta qurollantirishga asoslanishi, dehqonlarning ommaviy harakati asosida bir qator rayonlarda yoppasiga jamoalashtirish uchun qulay shart-sharoit yetildi, degan g'oya ham qayd etildi. O'rta Osiyo byurosi Markazning ko'rsatmasiga xilof ravishda jamoalashtirish uchun yuqoridan majburan, buyruqbozlik bilan yuzaga keltirilgan "ommaviy harakat" degan aqida asosida yoppasiga jamoalashtirish rayonlarini ham aniqlab berdi. Unga ko'ra bunday rayonlar O'zbekiston bo'yicha yangi Buhoro, Sariosiyo, Konimex, Shahrihon, Asaka, Marhamat, Jalolquduq, Chust, Buvayda, Bag'dod, Rishton, Quva, Yangiyo'l, Pskent, Mirzacho'l, Oqdaryo, Pastdarg'om, Yangiqo'rg'on, Turkmaniston bo'yicha Qiziloyoq, Karki, Farob, Sayat, Denov, Kaaxka, Semenik, Seraxs, Qirg'isizton bo'yicha Bozorqo'rg'on, Arovnobura, Priozerniy, Beloved, Rikov, Kalinin, Tojikiston bo'yicha Saroyqoratog', Kabodiyon, Parkar, Orol, Cheptura rayonlari edi. O'rta Osiyo byurosi bu rayonlarni mustahkamlash uchun milliy kompartiyalar Markazkomlari zimmasiga yoppasiga jamoalashtiriladigan rayonlarda partiyaviy rahbarlikni kuchaytirish vazifasini qo'ydi¹. 1930-yil 28-yanvardagi qarorning VI bo'limda quloqlarni sinf sifatida tugatish uchun amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Bu ishni amalga oshirishda batrak va kambag'allar keng ommasi bevosita ishtirok etishlari, juda faol bo'lishlari lozimligi ko'rsatilgan. Kolxozchilik harakati va quloqlarni sinf sifatida tugatish sari olib borilayotgan partiya va sovet hukumatining bunday siyosati quloq unsurlarning dushmanlik, qo'poruvchilik faoliyatini avj oldirishlari e'tiborga olinib, holatning oldini olish uchun respublikalar hukumatlari qarorlari qabul qilib quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari ko'rsatilgan: 1) quloqlarning ishlatilmay yotgan yerlarini tortib olib, kolxozlar yoki kambag'allarga berish; 2) jonli va jonsiz inventarlarni hisobga olib inventar egasiga ularni saqlash mas'uliyatini yuklash; 3) joriy ekish mavsumidan boshlab tugatilmagan quloq xo'jaliklarining jonli va jonsiz qishloq xo'jalik inventarlaridan kolxoz yoki kambag'allar dalalarida hashar yo'li bilan foydalanishga erishish, yagona qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 57.

quloq xo'jaliklariga texnikaviy ekinlar uchun berilayotgan barcha imtiyozlarni bekor qilish va boshqalar.

Joriy ekish mavsumida jamoalashtirish 70-75% bajarilgan rayonlar yoppasiga jamoalashtirish rayonlari deb hisoblangan.

Yoppasiga jamoalashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatishni mislsiz avj oldirish qishloq kambag'al-batraklar qatlami faolligining nihoyatda yuksalishiga olib kelishi mumkin deb hisoblab O'rta Osiyo byurosi mahalliy partiya tashkilotlariga bundan foydalanib qishloqdagi kambag'al-batraklarning eng yaxshi vakillarini partiyaga yollashni maslahat beradi. Ayollar ommasini ham bu ishga keng miqyosda jalb etish qarorda ko'rsatildi. Qishloq sovetlari, partiya yacheykalari va kolxozlar tarkibida xotin-qizlar salmog'ini muttasil oshirib borish vazifa qilib qo'yildi. Jamoalashtirish va quloqlarni tugatish ishida komsomol tashkilotlarining ham o'rni va ro'li o'sha qarorda ko'rsatib berildi. Jamoalashtirishning "jadal sur'atlari" natijasida respublika bo'yicha 1930-yil martda dehqon xo'jaliklarining 47% jamoalashtirildi, holbuki, 1929-yil 10-dekabrga qadar kolxozlar dehqon xo'jaliklarining bor - yo'g'i 34% ni qamrab olgan edi, xolos. Shu bilan birga ishlab chiqarish vositalarini umumiyashtirish masalasidagi noaniqlik tufayli yakka xo'jalikdan birdaniga jamoa xo'jaligining oliy shakli bo'lgan kommunalarga sakrab o'tish hollari sodir bo'ldi. Kommunalar tashkil etilgan joylarda darhol turar-joylarni, mayda hayvonlarni, parrandalarni va hokazolarni umumlashtirish ko'zda tutilgan edi. Qishloq xo'jalik artellarini tashkil etish vaqtida ham joylarda chorva mollari va parrandalarni umumiyashtirishga intilish sodir bo'ldi. Shunday qilib jamoalashtirish dehqonlarga zo'ravonlik qilish yo'li bilan amalga oshirildi. Badavlat xo'jaliklarning mol-mulkini to'liq musodara qilish "boy quloqlar" oilalarini o'zga yurtlarga surgun qilish ommaviy qonunsizliklar asosida amalga oshirildi¹.

Jadal jamoalashtirishga, quloq qilishga o'rtahol qatlamlarga shubha bilan qarashga, qishloq aholisining boshqa qatlamlari insoniy huquqlarining poymol etilishiga qaratilgan yo'l qishloqda siyosiy vaziyat keskin tus olishiga sabab bo'ldi. Qishloq aholisi o'rtasidagi bu ijtimoiy norozilik qudratli portlashni keltirib chiqardi. 1930-yil 15-iyunda Iskavot qishloq soveti hududidan qo'llarida ketmon, bolta ko'targan 2 ming kishilik qishloq odamlari yo'lga chiqib tuman markazida shikoyat bilan yurish qildilar. Bir necha batraklar yarador bo'ldi, 20 dan ortiq xotin-qizlar hibsga olindi. Bu hildagi chiqishlar Farg'ona, Bag'dod tumanlarida, Oyimda, Chustda, Xatirchida ham ro'y berdi. Kolxozlarga qarshi chiqish hollari OGPU ning ma'lumotlariga qaraganda, respublikada bu davrda 240 marta sodir bo'lgan. Umuman olganda, SSSR bo'yicha 1930-yil martining o'rtalariga kelib 2 mingdan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan².

Moskvaning tazyiqi bilan 1931-yilning bahoridan e'tiboran O'zbekistonda yoppasiga jamoalashgan tumanlar tashkil etish tajribasi qayta tiklandi. Ittifoqning g'allakor tumanlarini jamoalashtirish sur'atlari bo'yicha "quvib yetish va o'zib ketish" shiori yana ilgari surildi. Bu vazifani ta'minlash ilgari ishlab chiqilgan amalga oshirildi. Natijada, agar 1930-yil iyunda respublikada 6124 ta kolxoz mavjud bo'lib, ularga jalb qilingan dehqon xo'jaliklarining 27,1% ni tashkil etgan bo'lsa, yilning oxiriga borib, u 37,7% ga, 1931-yilning mayida 56,7 % ga yetdi. 1 dekabrda esa 68,2 % bo'ldi³.

Shuningdek jamoalashtirishni jadallashtirishning "iqtisodiy" usullaridan o'ziga xos tarzda foydalanildi. Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'ravonlik, qishloq mehnatkashlarini kolxozlarga "haydash" ning iqtisodiy terror usullari rasmiy belgilangan kolxoz qurilishi rejalarini sezilarli ravishda oshirib bajarish imkonini berdi. 1932-yilning oxirlariga kelib umuman respublikada ijtimoiy sektor barcha dehqon honadonlarining 81,7% ni birlashtirgan edi. 800 ming dehqon

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. — Т.: Шарқ, 2003. — Б. 348.

² Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. — Т.: Шарқ, 2000. — Б. 352.

³ Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. — Т.: Шарқ, 2000. — Б. 353.

xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etildi. Shunday qilib, kolxoz qurilishi sur'atlarini sun'iy ravishda avj oldirish, kolxozlarni "sotsialistik asosda mustahkamlash", ko'p sonli odamlarning qurbon bo'lishiga, ularning begunoh qoni to'kilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda respublikada faqat bir xil shakldagi kolxoz tuzumi qaror topdi¹.

Yakka dehqon xo'jaliklarining to'la-to'kis tugatilishi va kolxozlar yirik umumlashgan ishlab chiqarishning yagona shakli sifatida qaror topishi sovet hokimyatining "kolxozlardan oldingi qishloq" ni sotsialistik o'zgartirish borasidagi siyosatning tantanasi, deb baholanadi. Aslida esa sovet davlatining bu siyosati qishloqdagi bozor munosabatlarining barbod bo'lishiga, mulkchilikning xilma-xil shakllari tugatilishga, oxir oqibatda agrar ishlab chiqarishning izdan chiqishiga olib keldi. Umuman jamoalashtirish o'zbek qishlog'i tarixiy rivojlanishning sog'lom jarayonlariga to'sqinlik qildi. U dehqonlarning davlat tomonidan asoratga solinishiga olib keldi. Kolxozlarga zo'rlik bilan haydab kirilgan dehqonlar barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan va avvalo ko'chib yurish erkinligi, kasb faoliyatini tanlash huquqlaridan mahrum qilindilar. "Baxtli kolxozchilar" "badavlat turmush" dan qochib ketishlaridan hafvsirab, Stalin ularning pasportlarini olib qo'yishni buyurdi².

Kolxozchilarning kolxozdan ko'ngilli ravishda chiqishlari ta'qiqlandi. Ularning noroziligini bosish uchun 1932-yil 7-avgustdagi farmon bilan kimda - kim dehqonlarni kolxozlardan chiqarishga "majbur" qilar ekan, 5 yildan 10 yilgacha muddat bilan "konsentratsion lagerlar" ga tashlanishga hukm qilinadi, deb ko'rsatma berdi. Jamoalashtirish qishloq xo'jaligiga juda og'ir zarar bo'lib tushdi. Respublikada ocharchilik boshlandi (1933-yil). G'alla yetishtirish keskin qisqardi. Chorvachilikka haddan tashqari zarar yetdi. Bu siyosat yomon, xunik, fojeali oqibatlarga olib keldi. "Uning ijtimoiy oqibati shu bo'ldiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qishloq infrastrukturasidagi kattadan-katta mablag' boshqa sohaga behuda sarflandi, qishloqda Stalincha diktaturaning ijtimoiy bazasi mustahkamlandi. Dehqonlar o'z mulki va mehnati natijalaridan begonalashdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy rag'batlari tugatildi, qishloqda malakali ishchi kuchi taqchil bo'lib qoldi"³.

Jamoalashtirish to's-to'palonlari paxtachilikka ham ta'sir ko'rsatdi, paxta yakka hokimligining yalpi ommalashuviga olib keldi. 1930-yilning bahoridan boshlab sredaz EKOSO respublika hukumatidan yoppasiga jamoalashgan tumanlarda "to'rt dan uch qismga chigit ekish" ni talab qildi.

Respublika rahbariyati imkoni boricha yalpi paxtachilikni avj oldirishdan iborat halokatli jarayonni to'htatib qolishga urunib ko'rди. Ular paxta bilan bir qatorda g'alla ekish, sabzavot yetishtirish, chorvachilikni yuksaltirish uchun mustahkam yem-hashak bazasini yaratish kabi oqilona takliflarni qo'ydi. Biroq Kremldagi siyosiy rahbariyat "joylar" dan bo'lgan takliflarga quloq solishni istamadi. Stalin paxta mustaqilligiga erishish shiori ostida respublikamizni paxta yakkahokimligiga faollik bilan majbur etdi. Uning tazyiqi bilan 1933-yildayoq paxta respublika tayyorlab beradigan mahsulotlarni umumiy hajmining 81,5% ni tashkil etdi. 1937-yilga kelib bu ko'rsatkich 93,4 % ga yetdi. Shuningdek 30 yillarda sovxozlar qurilishi ham tez sur'atlar bilan amalga oshirildi. U ko'p jihatdan "SSR ning paxta mustaqilligini qo'lga kiritish" vazifalarini ta'minlashga bo'ysundirilgan edi. 1940-yilga kelib sovxozlarning umumiy soni respublikada 85 taga yetdi. Biroq ularning kolxozlar singari jadallik bilan qurilishi qishloq xo'jaligi taraqqiyotini tezlashtirishga yordam berolmadi. Sovxozlar siyosiy rahbariyat "orzu qolhanidek" samarali agrar ishlab chiqarish namunasi bo'la olmadi. "Jamoalashtirish" natijasida majburan tashkil qilingan "kolxoz-sovxoz tuzumi" yerdan foydalanishning yaroqsiz shakli bo'lib, oxir-oqibatda agrar ishlab chiqarishni tanazzulga olib kelishiga, olib keldi. Davlatning qishloqdagi azaliy

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 312.

² Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 356.

³ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 6.

an'anaviy xo'jalik aloqalari tizimiga yoppasiga aralashuvi, qishloq xo'jaligi uchun mutlaqo zararli bo'lgan sotsialistik munosabatlarni majburan tiqishtirilishi mustaqil rivojlanishning ichki imkoniyatlarini barbod qildi, qishloq mehnatkashlarining ongi esa buzilib bordi. Dehqonlar yerga va ishlab chiqarishga egalik tuyg'usini, ming yillardan buyon singib ketgan mehnatsevarlik fazilatlarini yo'qotib bordilar, ulardagi mehnatga, kasb mahoratiga bo'lgan mehr-muhabbat sovib bordi. Bu buzulish jarayonlarining ta'siri xali-hanuz barham topgan emas. Respublikamiz prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, bozor agrar islohotlarining zamonaviy tajribasida sovet o'tmishidan meros bo'lib qolgan jiddiy to'siq har qadamda uchrayotgan rasmiyatchilik, ko'zbo'yamachlik, ishimizga yuzaki qarashdir¹.

Bu zararli illatlarning ildizi zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan jamoalashtirishda yashiringan edi.

1.2. Quloqlashtirish siyosatini amalga oshirishning shartlari va maqsadlari

Sovet mustamlakachilari O'zbekistonda 20-yillar oxiri va 30-yillar boshlarida keng ko'lamda jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosatni olib bordilar. Lekin bu siyosatga sovetlar davrida xolisona baho berilmadi. O'rta Osiyoda shu jumladan O'zbekistonda o'tkazilgan "quloqlashtirish" kompaniyasi yaqin-yaqingacha tarixiy adabiyotlarda sovet davlat tuzumimining, jamoalashtirish siyosatining qishloq rayonlardagi ulkan g'alabasi tarzida talqin etib kelindi. Binobarin, shu g'ayriinsoniy kompaniyaning qurboni bo'lgan kishilar va ularning farzandlariga yaqin-yaqingacha yot unsurlari sifatida qoralabularning insoniy haq-huquqlari payhon etib kelindi².

Ammo XX asrning so'nggi yillarida, ayniqsa, SSSR ning davlat sifatida halokatga uchrashi bilan sovet davri tarixining qayta o'rganilishi va shu davrda ro'y bergan siyosiy-ijtimoiy voqealarning qayta baholanishi natijasida "quloqlashtirish" sovet davlati amalga oshirgan eng sharmandali kompaniyalardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekistonning sovetlar davri tarixidagi deyarli mutlaqo o'rganilmagan mavzulardan biri "quloqlar" bilan bog'liq bo'lib, u qatag'on etilib surgun qilingan dehqonlarimizning ayanchli hayoti, taqdiridir. Sovetlar davrida bu mavzu o'rganish uchun man etilgan edi. Quloqlar "qishloq burjuaziyasi", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari", "sotsializm dushmanlari", "kolxoz dushmanlari" degan nomlar bilan atalib kelindi³.

Tariximizning yana shu achinarli, alamli sahifasini yoritish hozirgi davrda tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero prezidentimiz Islom Karimov so'zi bilan aytganda, o'sha mustabid sovetlar tuzumi "qattol zamon" taqozosi bilan o'z davrida biri "qizil askar", biri "bosmachi", biri "quloq", biri "komisar" yana biri "mushtumzo'r" yana qay biri "yo'qsil" deb guruhlariga ajratib tashlandi. "Bo'lib tashlab hukmronlik qilish" uchun eng makkor usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir-biriga qayrash, adovat va nizo urug'ini sochish amalga oshirildi. "Shu bois, -deb ko'rsatadi yo'l boshchimiz ota-bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to'g'ri tushinishga harakat qilishimiz lozim"⁴.

Jamoalashtirish va quloq qilish uning fojeali oqibatlarining eng birinchi aybdori mustabid sovet tuzumi, Komfirqa, qolaversa ularning arboblardir. Qishloq, dehqon taqdirining fojeali, dahshatli yakun topishining bosh "qahramonlari" ayni o'sha arboblardir. Dehqonlarga qilingan bu tajovuz "bolshevizm" ning ajdodlaridan ekan, uning ildizi ham Komfirqa va uning shtabiga

¹ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд – Т., 1996, 163 - бет.

² Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 5.

³ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 4.

⁴ Каримов И. А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. "Туркистон" газетаси муҳбирининг берган саволларига жавоблари. "Туркистон" газетаси, 1999 йил 2 феврал.

borib taqaladi¹. Ayni shu joydan turib millionlab dehqonlar taqdirini hal etish boshqarildi. Qishloq fojeasining yuzaga kelishida “dohiy Lenin” g’oyalari dasturilamal ahamiyatga ega bo’lib nazariy-siyosiy reja yo’lini o’tadi. “Quloqlar”ga birinchi bo’lib o’t ochgan ham Leninning o’zi bo’ldi. Lenin ishchilarning dasturi va siyosati “quloqlarni yanchib tashlash” dan iborat deb bildi. Lenindan keyingi ikkinchi siyosiy shaxs Trotskiy edi. “Quloq” tushunchasi 20-yillar davomida asta-sekin kengaya bordi, avval boshda kim batraklarni o’zi yollab olgan, yani yollanma mehnatdan foydalangan bo’lsa, u quloq hisoblendi. Keyinchalik esa, barcha o’ziga to’q dehqonlarni quloq deb hisoblash keng tus oldi. “Quloqlar” ni sinf sifatida tugatish sari mudhish siyosat 1929-yilning 7-noyabrida “Pravda” gazetasida Stalinning “Buyuk burulish yili” maqolasi e’lon qilingach amalga oshirila boshlandi. O’sha vaqtda “dohiy” ning o’ng qo’li hisoblangan Molotov quloqlarni kolxozga kiritish yoki kiritmaslik masalasida o’z fikrlarini bildirdi. U har qanday holatda ham kolxozda bo’lmasligi kerak, chunki u bu ishni nafaqat izdan chiqaradi, hatto uni barbod etadi. Quloq hali qo’lga olinmagan eng xavfli dushmandir,² - deb aytadi. Quloqni har jihatdan aksilinqilobiy zararkuranda deb bilgan Molotov quloqqa qarshi beayov jang ochish kerak deb chiqdi. Stalin, Lenin nomini niqob etib, dehqonlarni sotsialistik geneotsid qilish uchun yangi iqtisodiy siyosatni yig’ishtirib qo’ydi. Uning o’rniga “buyuk burulish yili” dan Stalin shaxsiga sig’inish ham avj oldi.

21-dekabrda mamlakat Stalinning 50-yilligini nishonladi. Shunda Stalin birinchi bor “buyuk dohiy, inqilob tashkilotchisi, qizil armiya bunyodkori, oq gvardiyachilar va interventlarni tor-mor etgan ulug’ sarkarda, proletariat dohiysi besh yillik ulug’ strategi” tarzida ta’riflandi. 27-dekabrda markscha agrarshunoslar konfrensiyasi Stalin boshchiligida yangi inqilob boshlanganligini ma’lum etdi. Shu kuni Stalin yangi iqtisodiy siyosat tugab, yangi era boshlanganini e’lon qildi. Bir vaqtning o’zida kolxozlar tuzish va quloqlarni tugatishdan iborat ikki jarayon yuz berib, u ko’plab iplar bilan o’zaro bog’lanib ketdi. “Quloqlarni tugatish” jamolashtirish uchun moddiy baza bo’ldi. 1929-yil oxiridan 1930-yil o’rtalarigacha 320 mingdan ziyod quloq xo’jaliklari tugatildi. Ularning 175 mln so’m qimmatga ega bo’lgan mulki, buyumlari kolxozlarning bo’linmas fondiga topshirildi³. Shu mablag’ batrak va kambag’allarning kolxozga kirishlari uchun badal sifatida rasmiylashtirildi va u kolxozlar bo’linmas mulkining 34% ni tashkil qildi. “Quloqlar” ni tugatish oqibatida qishloq eng tadbirkor, epchil, o’ziga to’q, mustaqil ish ko’ruvchi, xo’jalik yurutuvchi dehqonlardan maxrum bo’ldi. Qishloqda jamolashtirishga qarshilik ko’rsatgan qishloq aholisining ruhi tushib ketdi. Ayniqsa, “quloq” qilinib Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qozog’iston va O’zbekistonning cho’l-dasht tumanlariga badarg’a qilinganlar va ularning ayanchli, fojeali taqdiri dehqonlarda kolxozga kirmaslik ana shunday yomon oqibatlarga olib kelishiga ishonch hosil qildi, natijada ular qo’rqib kolxozga kirish hayotiy zaruratga, jon saqlab qolish kafolatiga aylandi. Ustiga-ustak, dehqonlarni kolxozga zo’rma-zo’raki haydab kiritish uchun qishloqqa komunistlar, 25 mingchilar safarbar etildi. Kolxozlar tuzish sun’iy tarzda tezlashdi. 1928-yil 1- iyulda kolxozlarda 1,7 % dehqonlar bo’lsa, bu raqam 1929-yil noyabrida 7,6% ni, 1930-yil martida 58 % ni tashkil etdi⁴. Ma’lumki, O’zbekiston dehqonchiligida paxtachilik yuqori mavqega ega bo’lgan asosiy tarmoq hisoblangan. Shu bois, bu yerda dehqonlar, hatto kambag’al dehqon ham yollanma mehnatdan foydalangan va yetishtirilgan hosilning bir qismini sotib tirikchilik o’tkazgan. Bunday milliy o’ziga xos xususiyat quloq qilish siyosatini o’tkazish chog’ida inobatga olinmadi, markazda neki bo’lsa, shuni ko’r-ko’rona tadbiri qilish amalga oshirildi. Jamoalashtirish, quloqlarni sinf sifatida

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 21.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 63.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 64.

⁴ Шамсутдинов Р. Мудҳиш ҳукмлар, фожеали тақдирлар // Жамият ва бошқарув. – Т., 2003. – № 2. – Б. 31.

tugatish siyosati amalga oshirilgan vaqtda kommunistlar yo'l qo'ygan jiddiy hatolardan biri ularning diniy omilga e'tibor bermasligi, hatto diniy hissiyotlar, qarashlarga qarshi hujum olib borgani bo'ldi. Dindorligi, hudojo'yligi, islomshunosligi, taqvodorligi uchun, totalitar rejimdan noroziligi uchun ko'plab begunoh kishilar sun'iy ravishda quloq qilindilar. Shaxsiy adovatlar uchun ham o'ch olish quloq qilish siyosatini qurol va qalqon qilib olgandi¹.

Kambag'al dehqonlar, mayda kosib - hunarmandlar quloq bo'lib qolmasligi uchun o'z ho'jaliklari faoliyatini kengaytirish o'rniga qisqartirdi va kamaytirdilar. Dindorlar esa uydagi noyob qo'lyozma va kitoblarni kuydirishga, ariqda oqizishga, qabristonlarga ko'mib, turli yo'llar bilan o'zlarining ruhoniy emasligini isbotlab, quloq bo'lmaslik yo'llarini axtarishga majbur bo'lgandilar. Quloq qilish siyosati mudhish siyosat bo'lib, jamoalashtirish bilan bir vaqtda bu siyosat bilan qo'shib olib borildi. Bu siyosat boshdan oxirigacha zo'ravonlik, jabr-zulm holatida olib borildi. Quloqni aniqlash, uni ijtimoiy jihatdan asoslash, zo'rma-zo'rakichilik, shoshma-shosharlik asosida o'tkazildi. Bu hatto quloq qilish kopmaniyasi ishtirokchilari ham e'tirof etganlar. Masalan, Yangiyo'l tuman moliya bo'limi mudiri Xaritonov shunday axborot bergan: "Kechasi meni chaqirishib quloqlarni tugatishga borishimni aytishdi. Guvohnoma berishdi, nima va qanday qilish haqida biror narsa aytishmadi". O'sh, Zangiota qishlog'i bo'yicha 42 ta xo'jalik tugatildi, jumladan qishloq xo'jalik solig'i bor-yo'g'i 158 so'm bo'lgan dehqon Abdulla Qozoqboyev, 238 so'm solig'i bo'lgan Ashraf Ibrohimov, 214 so'm solig'i bo'lgan Mulla Toshohjayev, 93 so'm solig'i bo'lgan Usmonxo'jayevlar xo'jaliklari ham tugatilgan, o'rta hol va kambag'al xo'jaliklari miqdori haqida aniq ma'lumotlar bo'lmagan. Shuningdek, tugatilgan quloq xo'jaliklari miqdori to'g'risida ma'lumotlar ham yo'q. Ularning ozroq qismi tugatilishdan saqlanib qolganlar².

Ko'p hollarda o'rtahol dehqonlar ro'yhatga olinib quloq qilindilar. Ro'yhatni moliya bo'limlari tuzganlar. 1930-yil 10-noyabrda Toshqishloq qishloq sovetidan Tojiboy Isomberdiyev, Katta Aravon qishlog'idan Rahmatqul Isamatullayev, Qorg'ova qishlog'idan Boqiboy Toshmatov, Bekobod qishlog'idan Saidakbar Sulaymonqulov, Toshqishloq qishloq sovetidan Saidakbar Hasanboyev, Pishqaron qishloq sovetidan Hamraqul Bozorboyevlar ayni o'sha o'rtahol dehqonlar ro'yxati bo'yicha quloq qilinganlar. 1930-yil 30-noyabrda Qo'qon tumani va shahri bo'yicha 246 kishi quloq qilgan. Quloq qilinganlar har birining daromadi pul hisobida ko'rsatildi, ularni quloq deb atash uchun mezon qilib olingan. Har bir quloq qilinganning daromad puli eng oziniki 210 so'm, eng ko'piniki 4503 so'mgacha bo'lgan. Ular hunarmandchilikda bir hodimi bo'lgani uchun, 1919-yilda 2 ta quroli bo'lgani uchun, 1929-yili 310 kun yollanma mehnatdan foydalangani uchun, imomlik qilgani uchun, 2 ta tegirmoni va 1 qaroli bo'lgani uchun, 1929-1930 yillarda qassoblik qilgani uchun, qo'y sotgani uchun, kerosin sotgani uchun, savdogarlik qilgani uchun, qandolatchilik qilgani uchun, hayvon sotish bilan shug'ullangani uchun, shayx bo'lgani uchun, savdogarligi va binoni ijaraga bergani uchun, dallollik qilgani uchun, makarka sotgani uchun, choyxonachi bo'lgani uchun, o'tin sotgani uchun, eshonligi uchun quloq qilinganlar³. Shu 246 kishidan aksariyat ko'pchiligi quloq, choriqor, mardikorga ega bo'lgani uchun, imomlik qilgani uchun (23 kishi), shayxligi uchun (17 kishi), mayda savdo bilan mashg'ul bo'lgani uchun quloq qilinganlar. Ularning ro'yhati qishloq sovetida kambag'allar faollari yig'inida tasdiqlangan va bunda tuman soliq komissiyasi qatnashgan. Quloq qilish chog'ida ko'proq o'ziga to'q dehqonlar ro'yhatga olingan. Har bir quloq xo'jaligi uchun hisob varaqasi ochilib, paxta punkti bilan shartnoma tuzilib, unga muvofiq paxta yetishtirib, davlatga topshirilgan. Bolsheviklar bosh bo'lgan sovetlarning dehqonlarga,

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 65.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 66.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 67.

umuman xalqqa qarshi yangi dahshatli hammasi, tajovuzi VKB (b) MK siyosiy byurosining “Yalpi jamoalashtirish tumanlarida quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida” gi mudhish qaroridan so‘ng yanada kuchaydi. Qarorda quloq sifatida hibsga olinib, badarg‘a qilinadigan kishilar mamlakat umumiy dehqon xo‘jaliklarining 5 % dan oshmasligi ko‘rsatilganiga qaramay, amalda 15-20 % xo‘jalik quloq qilindi. Quloq qilish jamoalashtirish ishlariga aksariyat chalasavod, yuqoridan berilgan topshiriqqa yetmaydigan, qishloq xo‘jaligi arteli Nizomini bilmaydigan, saviyasi past kishilar rahbarlik qilishdi. Oqibatda zo‘ravonlik, zug‘um, o‘ch olish, o‘rtahol, hatto kambag‘al dehqonlarni quloqlar ro‘yhatiga tikib yuborish hollari ko‘p bo‘ldi. Yuqorining ko‘rsatmasiga muvofiq quloqlashtirish, jamoalashtirishning natijasi bo‘lishi, ya‘ni avval ixtiyoriy ravishda kolxoz tuzish, keyin quloqlarni sinf sifatida tugatish ishlari amalga oshirilishi kerak edi. Bu masala qishloq sovetlari qoshidagi kambag‘al-batraklar kengashida muhokama qilindi. Joyda esa aksincha avval dehqonlar quloq qilindi keyin kolxozlar tuzildi. Odamlarga agar kolxozga kirmasang hibsga oilinib, quloq qilinib, badarg‘a qilinisan, yer-suvdan g‘alladan, sanoat mollaridan, saylash va saylanish huquqidan mahrum qilinisan kabi do‘q - qo‘rqituvlar bilan jamoalashtirish o‘tkazildi. Stalin va uning atrofida qishloq qurilishini tezlashtirish to‘g‘risida ko‘rsatma beradilar. Jamoalashtirish va quloqlashtirishni sun‘iy tezlashtirish maqsadida VKB(b) MK 1930-yil 5-yanvarda “Jamoalashtirish sur‘ati va kolxoz qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorning VI bo‘limida quloqlarni sinf sifatida tugatish uchun amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, quloq - boy ekspulattator unsurlarni yer mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilish vazifa qilib qo‘yildi, qarorga binoan quloqlarni sinf sifatida tugatish quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi. Birinchidan, barcha quloq xo‘jaliklari, yakka soliq to‘lovchilar, ekspulattatorlar xo‘jalik belgisi bo‘yicha saylov huquqidan mahrum qilinganlar tugatilishi ko‘zda tutildi. Ikkinchidan, quloqlardan sug‘orma yerlari, hovli-joyi, dalalardagi dov-daraxtlari, ishchi hayvonlari, oziq-ovqat murakkab qishloq xo‘jalik inventari, qayta ishlovchi ishlab chiqarish korxonalari tortib olinib, kolxozlarning bo‘linmas fondiga berilishi berilishi, chorikorlik bilan bog‘liq barcha bitimlar, qarz majburiyatlari bekor qilinishi ham ko‘zda tutilgan. Uchinchidan, chek yerlardan va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilingan xo‘jaliklari yoppasiga jamoalashtirish rayonlaridan, ko‘chirib yuborilishi, kolxozlashtirishga qarshi faol kurash olib boruvchi ashaddiy quloqlar jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo‘ldi. Tugatilgan quloq xo‘jaliklarga yerdan foydalanish huquqi berilgan bo‘lsada, ularning yollanma mehnatdan foydalanishi mutlaqo man qilib qo‘yilishi ham ko‘rsatilgan¹.

1930-yilda O‘zbekistonda 750 ming dehqon xo‘jaligi bo‘lib, shundan 40 mingga (qariyb 6%) quloq sifatida hibsga olinib sud qilingan yoki Ukraina va Shimoliy Kavkazga, O‘rta Osiyoning yangi o‘zlashtirilgan cho‘l tumanlariga badarg‘a etilgan².

VKB (b) Markaziy Komiteti siyosiy Byurosining 1930-yil 20-fevraldagi “Jamoalashtirish va iqtisodiy jihatdan orqada qolgan milliy rayonlarda quloqlarga qarshi kurash to‘g‘risida” gi mahfiy qarorida jamoalashtirish, kolxozlashtirish va quloq qilish jarayonida O‘rta Osiyodan 400 dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda oilalarni surgun qilish, 1930-yil 15-martga qadar O‘rta Osiyodan 1500, jumladan, O‘zbekistondan 1000 kishini birinchi toifali faol quloqlar sifatida konslagerga qamoqqa olish kerak ekanligi ko‘rsatildi. Qarangki, o‘sh mudhish, mash‘um qaror chiqqandan so‘ng bir oy o‘tar - o‘tmas O‘zbekistondagi rahbarlar, ayniqsa, GPU chilar markazning ana shu topshirig‘ini ortig‘i bilan qoyilmaqom qilib bajarib, bu haqda 1930-yil 19-martda Moskvaga shoshilinch hisobot yuborgan. Unda O‘zbekiston bo‘yicha jami 1195 kishi boy quloq sifatida qamoqqa olingani aytilgan³.

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. — Т.: Шарқ, 2003. — Б. 57.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. — Т.: Шарқ, 2001. — Б. 102.

³ Шамсутдинов Р. Мудҳиш ҳукмлар, фожеали тақдирлар фожеали тақдирлар // жамият ва бошқарув. — Т., 2003. - № 2. — Б. 31.

Jamoalashtirish va “quloq” qilish avjiga mingan paytlarda bu mudhish siyosatga qarshilik bildirgan, kolxozga kirishni istamagan koʻplab insonlar jazo organlari tomonidan asossiz otuvga, konslagerlar, qamoqxonalarga hukm qilingan. Bu vaqtda OGPU ning Oʻrta Osiyodagi vakillari, mintaqa respublikalari, okrug rayonlaridagi OGPU organlari qoshida tuzilgan noqonuniy “uchlik” lar dehqonlarni qatagʻon qilish borasida mislsiz dahshatli ishlarni amalga oshirdilar. OGPU ning Oʻrta Osiyodagi vakili L. N. Belʼskiy (rais), OGPU vakolatli vakilligi oʻrinbosari U. A. Karustkiy, OGPU harbiy okrug qoʻshinlari boshligʻi Bobkevich aʼzolidagi “uchlik” tomonidan OGPU ning Oʻzbekistondagi organlari ustidan nazorat olib boruvchi prokuror Sarichev ishtirokida minglab hukmlarga imzo chekilgan. Vaqti-vaqti bilan bu jazo organlari va ularning “uchlik” lari tarkiblari oʻzgarib turgan. Hukmlarni imzolaganlarning oʻzlari ham vaqti kelib qatagʻon qilingan. SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1927-yil 9 iyuldagi 17-63 sonli qarori ostida 1930-1933-yillar mobaynida OGPU ning Oʻrta Osiyo doimiy vakilligi huzuridagi “uchlik” ning qarorlari bilan koʻpdan - koʻp yurtdoshlar har xil ayblar bilan otuvga, konslagerlarda, mehnat tuzatish lagerida, maxsus posyolkalarda jazoni oʻtash uchun hukm etilganlar¹.

1931-yilning avgustidagi quloqqa tortish va surgun qilish operatsiyasi natijasida Oʻrta Osiyodan 6 ming, jumladan, Oʻzbekistondan 3795 ta xoʻjalik (17839 kishi) Ukraina va Shimoliy Kavkazga surgun qilingan. Biroq ularning Oʻzbekistonning qaysi viloyatlaridan surgun etilgani maʼlum emasdi².

OʻzKommunistik Markazqoʻmi 1931-yil 15-sentabrda “Yoppasiga jamoalashtirish rayonlarida quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bogʻliq tadbirlar oʻtkazish toʻgʻrisida”gi yoʻriqnomani tasdiqlab, uni joylarga mahfiy tamgʻa bilan yoʻlladi. Yoʻriqnoma “Umimiy koʻrsatmalar”, “ Oʻzbekiston SSSR dan tashqarida surgun qilish tartibi”, “Oʻzbekiston hududidagi quloq posyolkalariga surgun qilish tartibi”, “Rayon hududi boʻyicha quloqlarni surgun qilish tartibi va tarkibi”, “Buyumlarni konsifikatsiya qilish tartiblari” kabi qismlardan iborat boʻlgan. Unga koʻra “Quloqlashtirish” uch toifaga boʻlib amalga oshirildi. Birinchi toifaga mansub kishilar sovetlar va jamoa xoʻjaliklariga qarshi yigʻinlarning qatnashchilari boʻlib, ularning oʻzlari qamoqqa olinishi, oilalari esa olis joylarga badargʻa etilishi zarur edi. Ikkinchi toifani tashkil etgan yirik “mushtum” zoʻrlar va jamoalashtirishga qarshi faollik koʻrsatgan oilalari bilan olis joylarga joʻnatilishi rejalashtirilgan edi. Nihoyat, “mushtumzoʻrlar” ning qolgan qismi uchinchi toifani vujudga keltirgan boʻlib, ular yashash joylariga yaqin manzillarga koʻchirilishi lozim edi. Bolʼsheviklar uchinchi toifadagi “mushtumzoʻr” larni ikkinchi toifaga oʻtkaza boshladilar³.

1931-yil oktabrdan “mushtimzoʻrlar” ga mansub xoʻjaliklarni yoʻqotishning yangi toʻlqini boshlandi. “Quloq” larning asosiy qismi 1931-yil badargʻa etildi. Ularning bir qismi 1932-yilda koʻchirildi. Oʻrta Osiyo byurosi 1932-yil yanvaridagi Fargʻona vodiysi paxtakor rayonlarida 1000 xoʻjalikni ixtiyoriylik tamoyili asosida Tojikiston SSSR ga koʻchirishga qaror qiladi. 1932-yil mayida esa ommaviy ravishda quloqqa tortish ularni koʻchirish operatsiyasi oʻtkazildi. Buning natijasida respublikaning 54 ta rayonlaridan 4865 ta xoʻjalik (22505 kishi) yaʼni 6877 nafar erkak, 5086 nafari ayol, 9055 nafar bola qatagʻon etilgan⁴.

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. — Т.: Шарқ, 2003. — Б. 169.

² Шамсутдинов Р. Шимолий Кавказ сургунидagi юртдошларимиз ҳаёти // жамият ва бошқарув. — Т., 2004. — № 4. — Б. 21.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. — Т.: Шарқ, 2001. — Б. 107.

⁴ Шамсутдинов Р., Расулов Б. Қулоқларнинг такрор қатағон қилиниши // Жамият ва бошқарув. — Т., 2005. — № 4. — Б. 50.

1932-yilda o'tkazilgan "tozalash" kompaniyasi jarayonida respublika kolxozlaridan 3550 "quloq" haydab chiqarildi, ulardan 306 nafari kolxozlarning raislari, 756 nafari boshqaruv a'zolari, 425 nafari boshqaruv kotiblari edi¹.

VKP (b) MK va SSSR XKS 1933-yil 8-mayda "Dehqonlarni ommaviy ko'chirishni to'htatish, qamoqqa olish va qamoqxona joylarini kamaytirish to'g'risida" mahfiy direktiv yo'riqnoma qabul qildi. Bu hujjat matbuot uchun man etilgan edi. O'sha yo'riqnoma mamlakatning 14 mintaqasidan 12 ming xo'jalik surgun qilinishi ko'rsatilgan. Jumladan, O'rta Osiyodan 500 xo'jalik surgun qilinishi kerak edi. O'sha ko'rsatma asosida O'rta Osiyoda quloq qilish surgun etish 1933-yilda ham davom etdi. SSSR XKS 1934-yil 23-aprelda "Quloq qilingan xo'jaliklar uchun davlatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini majburiy ravishda topshirish normalari to'g'risida" qaror qabul qiladi. Unga ko'ra yashirin daromadlar, kapitallar va mulklari bo'lmagan quloq qilingan xo'jaliklar ham yakka xo'jaliklar kabi davlatga majburiy ravishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini belgilangan normalar bo'yicha topshirishlari shart qilib qo'yiladi va bu xo'jaliklar hech qanday imtiyozlarga ega emasligi ham ko'rsatiladi. Sovetlar tomonidan 1933-1937-yillarda ham ko'plab dehqonlar quloq tamg'asi bilan qatag'on qilingan. Sovet tuzumi davridagi leninchastalincha siyosiy qatag'on aholining barcha qatlamlarini, turli kasb egalarini, ijtimoiy guruhlarni, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, ruhoniylar, yoshlar, qariyalarni, erkak va ayollarni o'z domiga tortgan edi. SSSR ichki ishlar xalq komissarligining 1937-yil 30-iyuldagi 00447 sonli buyrug'i asosida 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvarigacha O'zbekiston SSR bo'yicha sobiq quloqlardan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, boshqa "antisovet unsurlar" dan 3097 kishi, jami 10700 kishi hibsga olinib, ularning barchasi qamoq jazosiga hukm etilgan. Otishga mahkum qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa "antisovet unsurlar" hisoblangan. Ular orasida O'zbekiston SSSR hududida surgun muddatini o'tayotgan mehnat ko'chkindilari ham bor edi². Quloqlar surgundagi mehnat ko'chkindilarining sohasidagi yutuqlari, ular yashash sharoitlarining yaxshilanishi GULAG mehnat qishloqlari bo'limi xodimlarini tashvishga solgan. Natijada mehnat ko'chkindilarining bir qismi xo'jalik jihatidan quloq xo'jaligi darajasiga o'sib chiqmoqda, degan ma'lumotlar yuqoriga yetkazilib, turilgan. 1937-1938 yillardagi qatag'on NKVD ning yirik xodimlarini ham o'z domiga tortdi, mehnat ko'chkindilarni boyib ketishinining asosiy aybdorlari qilib o'sha xodimlar ko'rsatildi. Bu davrda davlat tononidan yangitdan quloqlarni yuzaga keltirish siyosati olib borildi. Pirovardida mehnat surgunidagilar ham qatag'on obyekti bo'lib qoldi. O'zbekiston mehnat posyolkalaridagi ko'chkindilardan 1935-1936-yillarda 101 kishi, 1937-1938- yillarda 156 kishi qatag'on etildi. 1937-yilda 14758 mehnat ko'chkindisidan 46 kishi (0,31%), 1938-yilda 14271 mehnat ko'chkindisidan 110 kishi (0,77%) surgun qilindi. Ikkinchi jahon urushi davrida ham mehnat posyolkalaridagi ko'chkindilarning ma'lum qismi turli xil bo'hton, ma'lomatlat, noto'g'ri ma'lumot, to'qima ayblar asosida qatag'onga uchradi. Shu tariqa 1941-1942- yillarda O'zbekiston hududidagi mehnat posyolkalarida 283 kishi sobiq "bosmachi", 279 kishi esa sovetlarga qarshi va aksilinqilobchi shaxslar sifatida NKVD ning operativ ro'yxatiga olingan va qatag'on domiga tortilgan³.

Quloq surgunidagilarga nisbatan urushdan keyin ham turli ko'rinishda qatag'on siyosati qo'llanildi. Bu jarayon 1955-yilgacha davom etdi. Ular 50-yillarning o'rtalarida ozod bo'lganlaridan so'nggina qatag'on balosidan qutilishdi.

II bob Namanganda sovet hokimyatining quloqlashtirish siyosati va uning oqibatlarini.

¹ Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 355.

² Шамсутдинов Р., Расулов Б. Қулоқларнинг такрор қатағон қилиниши // Жамият ва бошқарув. – Т., 2005. - № 4. – Б. 51.

³ О'sha joyda.

2.1 Namanganda sovetlar hokimiyatining o`rnatilishi va quloqlashtirish soysatining asosiy mohiyati.

Namangan viloyati Farg`ona vodiysining shimoli-g`arbiy qismida joylashgan. Qo`qon xonligi tugatilib uning o`rnida Fag`ona viloyati tashkil etilgach, Namanganning hozirgi hududida Namangan va Chust uyezdlari tashkil etildi va 1897-yili ikkala uyezd yagona Namangan uyezdi qilib birlashtirildi. O`zbekiston SSR tashkil etilgach, Namangan uyezdi ma`muriy tuzulishi quyidagicha etib belgilandi: 1925-yil Namangan uyezdida volost va tumanlar 19 ta, shaharlar 2 ta, mahalliy qishloqlar soni esa 254 tani tashkil etdi¹.

1917-yilning fevralida Rossiyada inqilob yuz vergach, Turkistonda ham, siyosiy uyg`onish yangi pog`onaga ko`tarildi. Fevral inqilobi tufayli vujudga kelgan siyosiy erkinliklar natijasida o`lakadagi mahalliy ilg`or ziyolilar ham zudlik bilan milliy jamiyat va nashrlar uchun harakat boshladilar. 1917-yil mart oyining boshlarida o`lka musulmon ziyolilarining “Sho`royi Islomiya” jamiyati tuzildi. O`z navbatida Namanganda 1917-yil aprel oyida mahalliy jadidlarning tashabbusi bilan bu jamiyatning bo`limi ochildi².

1917-yilning 12-iyunida Namanganda musulmon deputatlari Kengashi barpo qilindi. Uni tuzish va shakllantirishda U. Abdurahmonov, Sh. Shomansurov, G`. Qosimov, N. Qoriyev, L. Nizomboyev va boshqa musulmon vakillari yaqindan yordam berdilar. 1917-yil davomida Namangan uyezdida ko`plab jamiyatlar tashkil topib, bir necha gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. 1917-yil 8-mayda Namangan shahridagi yog` zavodida ishchi va xizmatchilarning yig`ilishi bo`lib, unda ishchilarning zavod qo`mitasini tuzish va uning a`zolarini saylash to`g`risidagi masala muhokama qilindi³.

Majlis qaroriga binoan 7 kishidan iborat zavod qo`mitasi tuzildi. Bu qo`mita Namangan ishchi deputatlari sovetining negizini tashkil etdi. 1917-yil iyun oyida Namanganda shahar Dumasi ham tashkil topdi. Uning raisligiga Pakrovskiy saylandi. Shuningdek, 1917-yilda Chustda shahar Dumasi tuziladigan bo`lib, unda 34 kishi faoliyat ko`rsatgan⁴.

Bu davrda shahar dumasi va sovetlar o`rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo`lib, sovetlar tomonidan rad etilgan. 1917-yil oktabr-noyabr oyiga kelganda o`lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin o`zgardi. Petrogradda hokimiyat bolsheviklar tomonidan zo`rlik bilan qo`lga olindi. 1917-yilning 15-22 noyabr kunlari Toshkentda ishchi, soldat va krestyan deputatlari sovetlarining III o`lka s`yezdi bo`lib o`tdi. S`yezd Turkiston xalq Komissarlari Soveti tuzilganligini e`lon qildi. Hukumat tarkibiga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. Shu bois “Sho`royi Islomiya” va boshqa mahalliy tashkilotlarning tashabbusi bilan o`lkadagi milliy davlatchilikni tiklash g`oyasi asosida 1917-yilning 26-29 noyabr kunlari Qo`qon shahrida o`lka musulmonlarining IV favqulodda s`yezdi bo`lib o`tdi. 27-noyabr kuni s`yezd Turkiston Muhtoriyati tuzilganligini e`lon qildi. Turkiston Muhtoriyati tarkibida namanganlik ziyolilar ham mas`ul lavozimlarda ishladilar. Turkiston Muhtoriyatini butun o`lkada bo`lgani kabi, Namanganda ham mahalliy aholi tomonidan qo`llab-quvvatlanganligi to`g`risida arxiv hujjatlari va milliy matbuot sahifalarida ko`plab ma`lumotlar berilgan. Namanganda 1918-yilning 15-yanvar kuni mahalliy millat vakillari sovet hokimiyatining o`rnatilishiga qarshi miting uyushtirdilar. Biroq, mazkur miting bol`sheviklar tomonidan zo`rlik bilan tarqatildi. 1918-yilning 16-yanvarida esa qurollangan ishchilar va soldatlar shahar Dumasi, bank va telegraf binolarini qo`lga oldilar. Duma raisini, shahar boshlig`i va garnizon komandirini qamoqqa oldilar. Shu tariqa Namanganda ham sovet hokimiyati o`rnatildi⁵.

¹ Хайдаров З. У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий - иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. — Наманган, 2007. — Б. 22.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. — Т.: Шарқ, 2000. — Б. 24.

³ НВДА, 62 — фонд, 1 — рўйхат, 25 — иш, 11 — варок.

⁴ Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўраҳон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. — Чуст : Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. — Б.79.

⁵ НВДА, 796 — фонд, 1 — рўйхат, 51 — иш, 16 — варок.

Turkiston Muhtoriyatining tashkil topishi va insonparvarlik siyosati yangi kommunistik tuzum tashkilotchilari bo'lgan bolsheviklar tomonidan salbiy tarzda kutib olindi. Natijada Qo'qonda tuzilgan Muhtor hukumat 1918-yilning fevral oyida qonga botirildi. Muhtoriyat tor-mor etilgach, bol'sheviklar va arman dashnoqlari o'lkada ko'plab qirg'inbarotliklar uyushtirdilar. Jumladan, arman dashnoqlari Namanganda ham 1500 dan ortiq kishini o'ldirganlar¹.

Turkiston Muhtoriyati hukumatining tor-mor etilishi va mahalliy aholiga qarshi jazo kompaniyasining avj olishi, vatan farzandlarini ozodlik uchun qo'llariga qurol olishga va vodiydan qurolli qarshilik harakatining kelib chiqishiga turtki berdi. Mazkur davrda Namangan uyezdidagi qarshilik harakatida ham aholining turli tabaqalari ishtirok etdi. Harakat saflarida oddiy qishloq mirobidan tortib madrasa talabasigacha, hunarmand-kosibdan to Muhtoriyat hukumati tarkibida vazirlik lavozimida ishlagan shaxslargacha ishtirok etganlar. Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlarni bostirish yo'lida bol'sheviklar barcha usul va vositalardan foydalandilar. Jumladan, qurolli muholifatni qo'llab-quvvatlagan mahalliy aholidan shavqatsizlarcha o'ch olindi. 1918-yilning oxirlarida "Ulamu" va "Sho'riyi Islom" tashkilotlarining tashabbusi bilan Namangandagi Jom'e masjidida katta yig'ilish bo'lib o'tdi. Uning tashkilotchilari Qodir hoji, Ortiq hoji, Qoraxon to'ra, Botirxon to'ra, Ishoq shayx va boshqalar edi. Yig'ilishda musulmonlar manfaati, kurashi va sovetlar hukmronligiga qarshi kurash masalari muhokama qilindi².

Yig'ilish qaroriga ko'ra, oradan besh-olti kun o'tgach, Namanganga qurolli muholifat rahbarlari taklif etildi. Binobarin, yig'ilishda Qizil Armiya qismlari va arman Dashnoqlarining o'ta beboshliklari qoralanib, ularga zarba berish va ularning talonchiliklarini tiyib qo'yish uchun qurolli qarshilik harakati kuchlariga yordam so'rab murojat qilindi. Qurolli muholifatni butunlay tugatish uchun inqilobiy qo'mitalar, Qizil Armiya qismlaridan tashqari mahalliy kishilardan iborat ko'ngilli otryadlar ham tuzildi. Ular Qizil Armiyachilarga yordam berdilar va sovet hokimiyatini himoya qildilar. Masalan, Chustda O'zbeklardan iborat Yo'ldosh Boymatov boshchiligida 126 kishilik milliy otryad bol'shevik Ivanov rahbarligida Chust va Namanganni "bosmachi" lardan himoya qildi va bir necha bor janglar qilib, Qizil Armiyaga yaqindan ko'maklashdi³.

1919-aprelda Namanganni ozod etish uchun Madaminbek boshliq qurolli qarshilik harakati guruhlarini keldi. 1919-yil 2-aprel shaharda 300 nafar piyoda va 40 kishilik otliqlardan iborat bol'sheviklar qoshini mavjud edi. 2-3 aprel kunlari bo'lib o'tgan janglarda bol'sheviklar Qo'qon va Samarqand otryadlariga tayangan holda shaharni o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Qurollar qarshilik harakati guruhlarini esa chekinishga majbur bo'ldilar. Shundan so'ng Namangan shahrida mahalliy aholi ustidan siyosiy nazorat ishlari kuchaytirildi. Shahardagi bolshevistik qo'shinlar qo'mondonligi 1919-yilning 26-iyunida hukumat siyosatiga nisbatan salbiy fikr tarqatgan kishilarni qattiq jazolash, hatto otib tashlash haqida buyruq chiqaradi. 1919-yilda Namangan uyezdida qurolli kurash maydoniga Osmon polvon boshliq guruh kirib keldi. U o'z otryadiga kichik - kichik tarqoq guruhlarini birlashtirgan edi. Osmon polvon askarlari Sovet hokimiyati va Qizil armiya uchun eng xafli dushman bo'lib qoldi. Shu davrda Namangan uyezdida Qobul, Sotiboldi qozi va Rahmonqul qo'rboshilar ham faoliyat yuritmoqda edilar. Bugungi Namangan viloyatiga qarashli deyarli barcha shahar va qishloqlarda ham qurolli qarshilik guruhlarini faoliyat yuritdilar. Masalan, Chust tumanida ham boy - badavlat, o'ziga to'q xonadonlardan Ahmadjon mingboshi, Jalil Mirshab, Ismatullo va boshqalar guruhlariga birlashib, sovet hukumatiga qarshi kurash olib borganlar. Varzik, Baymoq, Shoyon, Qizil Tepa hududlarida Karim qo'rboshi To'rayev harakat qilgan. Orzimat qo'rboshi esa Karkidon, Qoraqo'rg'on, Chotqol hududida faoliyat yuritdi. Shu davrda G'ova, Olmos, Mashhad,

¹ Қосимов Ў. Қора кўзойнак билан ёзилган тарих. – Наманган, 1993. – Б. 79.

² Хайдаров З.У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий – иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – Б.26.

³ Қосимов Ў. Қора кўзойнак билан ёзилган тарих. – Наманган, 1993. – Б. 80.

Toshqo'rg'on, Karnon, Og'asaroy qishloqlarida Abdumalik, Rahmonqullarning otryadlari harakat qilganlar¹.

Qurolli muholifat qo'shinini butunlay tugatish maqsadida Namanganga 1920-yilning aprel oyida M. V. Frunze va Turkkommissiya raisi SH. Z. Eliava keladilar. 1920-yilning bahorida o'tkazilgan harbiy operatsiyalar natijasida Namangan uyezdidagi qurolli qarshilik harakati a'zolarining ko'plari taslim bo'lishga majbur bo'ldilar. Qurolli muxolifatni tor - mor etishda joylarda tuzilgan inqilobiy qo'mitalar katta rol o'ynadi. Bol'sheviklar tomonidan Namangan shahrida va joylarda tuzilgan inqilobiy qo'mitalarning asosiy maqsadi, qanday qilib bo'lmasin qurolli qarshilik harakatini tor-mor etishdan iborat edi. 1920- yilning noyabr oyida Omonpolvon kuchlarini tor-mor etish bahonasida hozirgi Yangiqo'rg'on tumanidagi Bekobod va Kalishoh aholisi ustiga qirg'inbarot hujum uyushtirildi. Ana shunday qarshilik harakatlariga qaramay, butun Turkistonda bo'lgani kabi, Namangan viloyati hududida ham sovet hokimiyati zo'rlik bilan o'rnatildi va yangi davlat asoslarini barpo etish va uni mustahkamlash borasida qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, dastlab kommunistik partiya va kommunistik yoshlar ittifoqi (komsamol) ning davlat va jamiyat hayotidagi boshqaruvchilik rolini oshirishga asosiy e'tibor qaratildi. Shu maqsad yo'lida Namangan uyezd-shahar soldat va ishchi deputatlari sovetidagi ishchi deputatlari guruhining umumiy yig'ilishida kommunistik fraksiya tashkil etildi. Ushbu fraksiya tarkibida birorta ham mahalliy millat vakillari yo'q edi. Keyinchalik uning negizida kommunistik partiyaning Namangan viloyati qo'mitasi shakllantirildi. Bol'sheviklar o'z mafkuraviy g'oyalarini aholi, xususan yoshlar orasida keng yoyish uchun joylarda kommunistik yoshlar ittifoqi tashkilotlarini tuzishga e'tibor qaratdilar. Natijasida, 1919-yilning yozida Namanganda ham kommunistik yoshlar ittifoqi tashkil topdi. 1918-yil oktabrdan 1919-yil avgustgacha Namanganda sovet hokimyatining organi sifatida shahar-uyezd soldat va ishchi deputatalari soveti Ijroiya qo'mitasi, 1919-1921-yillar oralig'ida esa Namangan uyezd-shahar inqilobiy qo'mitalari faoliyat yuritdi².

1920-yilgacha uyezdga eski ma'muriy boshqaruv tazimi saqlanib qolgan bo'lib, volostlarda volost boshqaruvchilari, qishloqlarda qishloq oqsoqollar, mahallalarda oqsaqollar faoliyat yuritdilar. 1920-yilning yozida Turk MIK, Turkkommissiya va o'lka kompartiyasining qaroriga muvofiq volost va qishloq sovetlariga saylovlar borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ushbu masala yuzasidan 1920-yil 14-iyunda Namanganda ham uyezd-shahar inqilobiy qo'mitasi va partiya komitetining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Uning qaroriga ko'ra, volost boshqaruvchilari, shahar va ovul oqsoqollari hamda ellikboshilik lavozimlari bekor qilinadi. Shundan so'ng zudlik bilan shaharlarda daha qo'mitalari va volost sovetlarini tuzishga kirishildi. Amaldagi volost boshqaruvchilari sovetlar va Inqilobiy qo'mitalar tarkibiga kiritilmadi. Namangan shahrida ham oqsaqol va mingboshlik lavozimlari o'rnida daha qo'mitalari tashkil etilib ularning raisligiga partiya a'zolari-kommunistlar tayinlandi. Sovet hokimiyati o'zining dastlabki tadbirlaridan yana biri sifatida ishni omma orasida o'z g'oyalarini targ'ib qiluvchi milliy nashrlar tashkil etishdan boshladi. Shu davrdan e'tiboran "Ishchilar qalqoni", "Erkinlik", "Qizil tikon", "Uyg'onish" nomli gazeta jurnallar nashr etila boshlandi. Totar ma'rifatparvari xususan, Makayev "Ishchilar qalqoni" gazetasining tashkilotchilaridan biri bo'ldi va 1921-yildan 1928-yilgacha Namangandagi davlat bosmaxonasini boshqardi. U 1937-yil qatag'on qurboni bo'lguniga qadar pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. H. Makayevning pedagogik, nashriyotchilik faoliyatida uning xotini F. Makayeva ham juda katta yordam bergan³.

¹ Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. – Чуст : Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. – Б.72.

² НВДА, 13 – фонд, 1 – рўйхат, 2 – иш, 3 – 4 вароқлар.

³ Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар (1917 – 1924 йиллар). – Т.: Университет, 2005. – Б. 35.

Sovet hokimyatining dastlabki kezlaridanoq, markaziy hududlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar Turkistonga ham o`zining ta`sirini ko`rsata boshladi. Masalan, 1921-1922-yillarda sovet hokimyatining qo`pol iqtisodiy siyosati tufayli, Rossiyaning markaziy hududlarida dahshatli ocharchilik yuz berdi. Butun Turkistonliklar qatori, Namanganliklar ham ochlarga yordam ko`rsatish ishlarida faol qatnashdilar. 1921-yilning avgust oyi boshlarida Namangan uyezdida ham ochlarga yordam ko`rsatish komissiyasi o`z faoliyatini boshladi. 1921-yilning oktabrida o`tkazilgan haftalik tadbirlari natijasida ochlarga yordam tariqasida Namangan shahridagi aholidan 18 mln rubl pul, boshqa moddiy narsalar to`plandi. Bundan tashqari, ochlarga yordam berish maqsadida uyushtirilgan shanbalikdan 4 mln. 698 ming rubl yig`ildi. 1921-yil avgust oyi birinchi yarmida Turkistonga Volgabo`yi va Uraloldi hududlaridan ochlar keltirila boshlandi Namangan uyezdida ochlar uchun 1921-yilning 5-avgustidan 11 avgustigacha oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari 3 million rubl xayriya mabla`gi to`plandi¹.

Sovet hokimyatining dastlabki yillarida Farg`ona viloyatining Shimoliy hududlari (ya`ni hozirgi Namangan viloyati) ham og`ir iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy muammolarni boshdan kechirdi. Masalan, bu muammolar Ozbekiston SSR sovetlari MIQ prezidiumining “Chust shahar sovetining faoliyati haqida” gi qarorida ham qayd etildi. Oktabr to`ntarishiga qadar Chust shahrida 27000 aholi istiqomat qilgan bo`lib, ular asosan hunarmand va ishchilardan iborat bo`lgan. Sovet hukumatining zo`rlik bilan o`rnatilishi jarayonida esa, aholining ko`p qismi boshqa yerlarga ko`chib ketishga majbur bo`ldi. 1921-1925-yillardagi agrar islohot, 1921-1929-yillardagi yer-suv islohoti sovet hokimyatini qoniqtirmadi. XX asr 20-yillarining oxirlarida qishloqda yoppasiga jamoalashtirish sari yo`l tutilib, jamoa xo`jaliklarini tuzish boshlandi. Mazkur siyosatga qarshi bo`lganlar esa o`sha davr ta`biri bo`yicha “quloq” deb ataladigan bo`ldi².

Dehqonlarga qarshi kurash olib borishda “favqulodda choralar” 1927-1928 yillardanoq qo`llanildi. “Quloq” xo`jaliklarini cheklab qo`yish, g`alla tayyorlash kompaniyasini joriy etish, dehqon xo`jaliklarini tintuv qilish, ortiqcha mahsulotlarni, hatto urug`lik donni zo`ravonlik bilan tortib olish, mehnat qurollari, ish hayvonlari va boshqa mol-mulkni musodara qilish, dehqonlarning o`zlarini esa qamoqqa olish keng tus oldi. Ayni vaqtda “quloq” larni siyosiy jihatdan ham cheklash, ya`ni ularni saylanish va saylash huquqidan mahrum qilish siyosati olib borildi. Bunday cheklashlar “quloq” dehqonlar bilan bir qatorda o`rtahol va kambag`al dehqonlarga ham tadbiri etildi³.

Yoppasiga kollektivlashtirishda qo`pol xatoliklarga yo`l qo`yildi. Ayrim qishloqlarda kolxozlashtirishga qarshi isyonlar ko`tarildi. Masalan, 1929-yilda 200 dan ortiq Karkidonlik dehqonlar kolxozlashtirishga qarshi isyon ko`tardilar⁴.

Bu kabi harakatlar zo`rlik bilan bostirildi. O`zbekistonda jamoalashtirish sobiq ittifoqning boshqa hududlari bilan solishtirganda, markaz talablari asosida jadallik bilan olib borildi. 1930-yilning boshlarida respublikadagi ayrim rayonlar yoppasiga ajamoalashtirish rayonlari deb e`lon qilindi. Hozirgi Namangan viloyati hududiga kiruvchi Norin, Chust, Pop rayonlari ham ushbu ro`yhatdan o`rin oldi. “Jamoalashtirish” tufayli agar, Norin rayonida jamoalashtirish darajasi 1929- yilning 1-oktabrigacha 10,2% ni, Chust-Pop rayonida 3% ni tashkil etgan bo`lsa, 1930-yilning 25-fevraliga kelib, bu ko`rsatkich birgina Norin rayonida 95,6% ni tashkil etdi. 30 yillar boshlarida uyezdida jamoalashtirishga qarshi dehqonlarning ko`plab ommaviy norozilik chiqishlari bo`lib o`tdi. Masalan, 1930-yil 20-fevralda Chust-Pop rayonida Mozor qishloq

¹ Хайдаров З.У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – Б. 40.

² Изоҳ: “Қулоқ” атамаси русча “кулак” – мушт сўзидан олинган бўлиб, сотсиалистик тузумга қарши кўтарилган мушт сифатида талқин этилган.

³ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 28.

⁴ Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўраҳон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. – Чуст : Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. – Б. 74.

sovetida 3300 kishi jamoalashtirishga qarshi namoyish bilan chiqdi¹. Jamoalashtirishga qarshi norozilik kuchli bo'lgan joylarga bevosita hukumat rahbarlarining o'zlari yetib kelishga majbur bo'ldilar. Masalan, 1930-yil 21-fevralda Samarqanddan Qo'qonga O'z SSR xalq Komissarligi soveti raisi Fayzullo Xo'jayev, O'z KP (b) Markazkomi kotibi Lepa va O'zbekiston GPU si raisi Perkonlar yo'lga chiqib, 22-fevralda Chust-Pop tumaniga yetib keladilar. Bu vaqtda Chust-Popdagi ahvol ochiq-oshkora qo'zg'alonga o'sib chiqishi xavfini tug'dirayotgan edi. Uning oldini olish maqsadida hukumat vakillari bazi joylarda qurolli kuchlar yordamida g'alayon tashabbuskorlarini qo'lga olish yo'li bilan kishilarni tarqatgan holatlar ham bo'lgan. Jamoalashtirish ishlariga qarshi kayfiyatda bo'lgan kishilarni jazolash uchun tezkor "uchlik" guruhlar tashkil etildi. Ular joylarda norozilik chiqishlarini tashabbuskorlari bo'lgan kishilarni qamash va otish ishlarini boshlab yubordilar. Ayrim tumanlarda jamoa xo'jaliklari tashkil etish qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi. Masalan, 1931-yil respublikada kollektivlashtirish ko'rsatkichlari 68,1 % ni, Farg'ona vodiysida 72,2 % ni tashkil etgani holda, Chust tumanida 1932-yil boshlarida ham 47,2 % ni tashkil etdi xolos². Biroq, olib borilgan zo'ravonlik siyosati o'zining natijasini bergan, ya'ni 1933-yilda Chustda 63 ta kolxoz tashkil etilgan. 1936-yilga kelib Chust rayonida 6624 ta qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklardan 6227 tasi kolxozlarga birlashtirilgan. VKP(b) ning XVIII s'yezida "xalqlar dohiysi" Stalinning: "Kolxozchi ayol o'z uyida alohida ovqat qilish, non yopish, kir yuvishga qaraganda, umumiy kirxonada kir yuvishning foydaliroq ekanini bilaganda, ana shu vaqtdagina kelajak qishloq xo'jalik kommunasi vujudga keladi", - degan fikrlari ayollarni jamoa xo'jaliklarga jalb qilish uchun g'oyaviy ko'rsatma vazifasini o'tagan. Quloq qilish siyosati mudhish siyosat bo'lib, jamoalashtirish bilan bir vaqtda bu siyosat bilan qo'shib olib borildi. Bu siyosat boshdan oxirigacha zo'ravonlik, jabr-zulm holatida olib borildi. Quloqlarni aniqlash, uni ijtimoiy jihatdan asoslash zo'rma-zo'rakichilik, shoshma-shosharlik asosida o'tkazildi. Buni hatto quloq qilish kompaniyasi ishtirokchilari ham e'tirof etganlar. Quloq qilish chog'ida ko'proq o'ziga to'q dehqonlar ro'yhatga olingan. Tumanlar bo'yicha aniqlangan quloqlar ro'yxati O'z KP(b) qishloq yacheykalarida muhokama qilinib, qishloq kambag'allari yig'inida tasdiqlangan. Yo'riqnomada quloq xo'jaliklari o'z ekin maydoninining 80 % qismida paxta ekmasalar yoki majburiyatda belgilangan normadagi paxtani topshirmasalar turli jazoga tortilganlar. Jarima Jinoyat Kodeksining 80 moddasi bo'yicha qamoqqa olish, yerini, mol-mulkini tortib olib, yashab turgan joyidan ko'chirib yuborish kabi jazolarni qo'llash zarurligi yo'riqnomada belgilab qo'yilgan³. Farg'ona okrug "beshligi" ning 1930-yil 13-fevraldagi yig'ilishida Chust tuman "uchligi" ning 6 fevraldagi qaror bayonnomasi tasdiqlangan. Bunga ko'ra 6 ta xo'jalik majburiyatlarini bajara olmagan uchun jazoga tortilgan. Masalan, Soatali Halimov - Pop qishlog'idan, 155 so'm 68 tiyin miqdorida alohida soliq solingan, 18 tanob yerni, 2 buqasi, 1 sigiri, 1 oti, 1 ta buzog'i bor, majburiyatdagi 1422 kg paxtani 479 kgni topshira olmagan uchun barcha mol-mulki musodara etilib, okrugdan tashqariga badarg'a qilindi. Chust tumani Qo'g'liko'l qishlog'idan Amin Xo'jayev, Varzik qishlog'idan Umarboy Ashirmatov, Karkidon ishlog'idan Nabi Abdurasulov, Tumanboy Isfandiyorov, xo'jaligi boshiga ham xuddi shunday kulfat tushdi. Ularning barcha mol-mulki musodara qilinib, okrugdan tashqariga badarg'a qilindilar. Quloqlashtirish kompaniyasi davomida boy-quloq chorvador xo'jliklardan butun respublika bo'yicha 78072 bosh qoramol qo'yi, 5073 bosh qo'zi, 165 ta ot, 404 ta tuya, 282 ta eshak, 4606 ta echki, 193 ta buqa va 28 ta cho'pon iti musodara qilinib olindi va kolxoz va sovxozlar ixtiyoriga topshirildi⁴.

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 144.

² Хайдаров З. У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: киёсий таҳлил. Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – Б.43.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 82.

⁴ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 94.

Sovetlarning jamoalashtirish va u bilan yondosh tarzda olib borilgan quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi juda ham og'ir kechdi. Bu tarixiy jarayon uzoq vaqt davom etdi. Uning fojeali oqibati shu bo'ldiki, minglab, yuz minglab odamlarning qashshoqlashuvi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning inqirozga yuz tutishi sodir bo'ldi.

Quloq qilishning falokatli oqibati ko'lami naqadar keng va ulkan, dahshatli bo'lganini tasavvur qilishning o'zi qiyin bir hol. Biroq bu fojeaning dahshatli manzarasini bir oz bo'lsada, tasavvur etish mumkin. Bunda bizga zamondoshlar, jonli guruhlarining qoldirgan xatlari, esdaliklari, xujjatlari, kundaliklari, arxiv materiallari badiiy asarlari, quloq qilish siyosati arboblarning xotiralari yaqindan yordam beradi.

2.2 “Quloq” qilingan oilalarni surgun qilish jarayoni.

Sovet tuzumi davridagi lenincha-stalincha siyosiy qatag'on aholining barcha qatlamlarini, turli kasb egalarini, ijtimoiy guruhlarini, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, ruhoniylar, yoshlar, qariyalarni, erkak-u ayollarni o'z domiga tortgan edi. Bunda dehqonlar ko'proq azob-uqubat chekdilar. VKP (b) Markaziy Komiteti siyosiy Byurosining 1930-yil 20-fevraldagi “Jamoalashtirish va iqtisodiy jihatdan orqada qolgan milliy rayonlarda quloqlarga qarshi kurash to'g'risida” gi maxfiy qarorida jamoalashtirish, kolxozlashtirish va quloq qilish jarayonida O'rta Osiyodan 1500 jumladan, Ozbekistondan 1000 kishini birinchi toifali faol quloqlar sifatida konslagerga qamoqqa olish kerakligi ko'rsatildi¹.

Bu davrda jamoalashtirishga qarshi chiqqanlarni qamash, surgun qilish ularga “quloq” tamg'asini yopishtirish avj oldi. Namangandan ham juda ko'plab kishilar quloq qilinib, 67 kishi qamoqqa olingan. Hattoki 1933-yilda ham 40 ta xo'jalik oilaviy quloq xo'jaliklari sifatida tugatilib, boshqa joylarga surgun qilingan. Shuningdek Namangan tumanida ham 1930-1932-yillarda 1108 kishi “quloq” qilindi². 30 yillarda quloq qilingan xo'jaliklarning ijtimoiy ahvoli tahlil etilganda, “quloq” qilish uchun albatta boy yoki siyosatga qarshi bo'lish asos bo'lmay, balki, u yuqoridan berilgan buyruq, aniq reja va buyurtmaga ko'ra tashkil etilganligi ayon bo'ladi. 1931-yilning bahorida Yangiqo'rg'on qushloqlaridan 283 xo'jalik, yoki, 1981 kishi Ukrainaning Xirson va Nikolayev viloyatlariga ko'chirib yuborildi. Shunday qilib, 1931-yilda Yangiqo'rg'on tumanida hammasi bo'lib 6623 ta boy va quloq xo'jaliklari tugatildi, dehqonlar ommasi yoppasiga yersizlantirildi. Quloq qilinganlarning 10 % 60-90 yoshli qariyalar, 40 % 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 50 % 16-60 yoshgacha bo'lgan kishilar bo'lib, shundan 40 % ayollar edi. Quloq qilinganlar ro'yxatida 1 yoshlik bolalarni ham ko'plab uchratish mumkin. Aksariyat yosh bolalar notanish sharoit va qiyinchiliklarga bardosh bera olmay nobud bo'lib ketdilar. Quloq qilish yuqoridan reja asosida amalga oshirildi. Masalan, Chust tuman Olmos qishlog'idagi Soatovlar honadoni a'zolari bir vaqtlar xususiy tegirmonga ega bo'lganligi uchun Ukrainaga quloq qilingan. Vaholanki, ular tegirmonni talab etilgan vaqtda davlat ixtiyoriga topshirgan edilar. Buning oqibati esa xonadon vakillarini ko'plarini o'zga yurtlarda barvaqt o'lib ketishgan yosh bolalarni erta nobud bo'lishiga olib keldi. Ko'plab odamlar “quloq” degan nomni olishdan qo'rqib, o'z chorva hayvonlarini so'ydilar, va sotib yubordilar, natijada chorva hayvonlarining soni keskin kamayib ketdi. Agarda 1927-yilda birgina Chust tumanida 15507 ta qoramol bo'lgan bo'lsa 1935- yilga kelib ularning soni 6715 taga tushib qoldi. Ya'ni qoramol tuyog' 8792 taga kamayib ketdi³.

Respublikadagi tegishli muassasalar quloq qilish va qilinganlarni surgun qilish operatsiyasini o'tkazishga kirishdilar. O'z KP(b) MK 1931-yil 1-avgustda quloqqa tortish va surgun qilish bo'yicha o'z vakillarini tasdiqlab, ularni joylarga hizmat safariga yo'llaydi. Shu

¹ Шамсутдинов Р. Мудхиш хукмлар, фожеали тақдирлар // Жамият ва бошқарув. – Т., 2003. – №. 2. – Б. 31.

² Хайдаров З. У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: киёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – Б. 43.

³ Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. – Чуст : Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. – Б. 89.

masala yuzasidan Namangan rayoniga Ahmadbekov, Chust-Pop rayoniga esa Levin vakil qilib yuborildi. Quloqlar maxsus eshelonlarda Shimoliy Kavkaz, Sibir va Ukraina tomon jo'natilib turilgan. Masalan, Namangandan Ukrainaning Xerson viloyati tomon yo'lga chiqqan 620 eshelonda (1931-yil avgust-sentabr) jami 382 oila, ya'ni 1566 kishi bo'lib, shundan 646 tasi begunoh bolalar edi¹.

Sovetlarning O'zbekistondagi jamoalashtirish va u bilan yondosh tarzda olib borgan quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi juda ham og'ir kechdi. Qishloq xo'jligini jamoalashtirish davrida O'zbekistonda 40 mingdan ortiq dehqon xo'jaligi "quloq" qilinib, ulardan 34,7 minggi qatag'on etildi².

Uning fojeali oqibati shu bo'ldiki, minglab kishilar qirilib ketdi, milliy qishloq qashshoqlashdi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish inqirozga yuz tutdi. O'rta Osiyodan boshqa hududlarga xususan, Xersonga, Ukrainaga va boshqa hududlarga ko'chirilgan o'zbek "quloq" larining hayoti, ularning ahvoli haqida mustaqillikkacha deyarli ma'lumotlar yozilgan emas. Faqatgina Mustaqillik yillarida professor Shamsutdinov tomonidan yozilgan "O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlarini" kitobida surgun qilingan "quloq" larning hayoti haqida to'laqonliroq ma'lumot berilgan. Masalan, Xerson viloyatiga mehnat qilish uchun ko'chirib keltirilgan o'zbek dehqonlari notanish, begona bu yurtida mislsiz og'ir hayot kechirishga majbur bo'ldilar. Ularda pasport bo'lmagan, o'rnashga joyidan boshqa shahar va qishloqqa borib kelishi man etilgan, turar joylari nihoyatda yomon holatda bo'lgan. Ularga Ukrain xatalari ajratilgan³. Bu xatarlar egalari ham quloq qilinib, Sibir va boshqa joylarga ko'chirma qilingan edi. Shu sababdan xatarlar tashlandiq, eshik, derazalari, poli yo'q, zahkash holatda edi. Ukrain xatalari bir-biri bilan tutash holatdagi ikki qismdan iborat bo'lib, birida oila yashasa ikkinchisida uy hayvonlari saqlangan. O'zbeklar yashaydigan maxsus qishloqlar avvalida inson yashashi mumkin bo'lmagan holatda bo'lgan. Ular odamlar yashamaydigan, huvillab qolgan, atrof-tevaragida dashtliklar joylashgan joylarga keltirilgan. Ayrim oilalar ochiq dalaga olib kelib tashlangan. O'zi bilan bolta, arra, ketmon, belkurak olib kelmagan oilalarning tirikchilik qilib ketishi og'ir kechgan. Bunday oilalarning ayrimlari ochlik, sovuq, izg'irin shamollarda og'ir kasalliklarga uchrab o'lib ketganlar. Mehnat qurollarga ega bo'lmagan oilalar darhol yerto'lalar kovlab, daraxt, to'ngaklar arralab, o'tin va yopiq qilib, bir amallab tirik qolganlar. Shunga o'xshash nihoyatda og'ir sharoitlarda maxsus qishloqlar, mehnat posyolkalari yuzaga kelgan. Ularda asta-sekin yangi qurilgan uylar paydo bo'la boshlagan. Ammo yaqinroq qabristonlarda qabrlar soni tez surat bilan o'sib bordi. Yosh bolalar, chol va kampirlar, kasalikka chalingan kattayu-kichik yoshdagilar o'limi odatiy hol edi. 1932-yilgi dahshatli ocharchilik "maxsus surgun qilinganlar" ni chetlab o'tmadi. Quloqlar surgunida tug'ilishga nisbatan o'lim, 5 marta ko'p bo'lgan. Bu o'rtacha ko'rsatkich bo'lsa, undan yuqorisi, masalan, Shimoliy Qozog'istonda 14,5 marta, Boshqirdistonda 10,4 marta, O'rta Osiyoda 8,3 marta, O'rta Volgada 7,6 marta o'lim ko'p bo'lgan. 1933-yili "quloqlar surguni" da hammasi bo'lib 1708 bola tug'ilagan bo'lsa, o'lganlar 151601 kishini tashkil qilgan. Agar 1933-yili "quloqlar surguni" da tug'ulishga nisbatan o'lish 8 marta ko'p bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Shimoliy Kavkazda 20,8, Shimoliy Qozog'istonda 19,1, Ukrainada 15,7, O'rta Volgada 15,6, O'rta Osiyoda 14,4, Uralda 13,1, janubiy Qozog'istonda 12,7 marta ko'p⁴, Uralda 13,1, janubiy Qozog'istonda 12,7 marta ko'p bo'lgan⁴.

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 191.

² Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида / тузувчилар Жўраев М. ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 322.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 116.

⁴ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 119.

1933-1937-yillarda Xersondagi o'zbek dehqonlari va ularning bola-chaqalari mislsiz og'ir va achinarli kun kechirganini hatto mansabdor shaxslar tan olishga majbur bo'lganlar. Ukrainaga ko'chirib keltirilganlarning aksariyati paxtachilik bilan mashg'ul bo'lgan. Markaziy hukumat Ukrainada paxtachilik joriy qilish va rivojlantirishga alohida ahamiyat bergan. Jumladan, paxtachilik sovxozlari ishchilarga ocharchilik avjiga chiqqan davrda ham qo'shimcha g'alla bilan ta'minlash imtiyozi berilgan. Mehnat surgunidagilarning achinarli ahvoli va muammaslari haqida ko'plab shikoyatlar, ariza va talablar yuqori hukumat organlariga yetib borar, unga asosan ma'lum choralar ham ko'rilar edi. SSSR Xalq Komissarlari qoshidagi Burunittifoq ko'chiruv komiteti o'z vakillarini joylarga yuborib, ular orqali ham ahvoldan voqif bo'lar va tegishli tadbirlar belgilardi. Quyida biz bir necha quloq qilinib, surgun qilingan Namanganlik hamyurtlarimiz hayoti haqida to'htalib o'tmoqchimiz.

Kuguboyev Ahmadjon – 1887-yilda Namanganda tug'ilgan. 1931-yili quloq qilinib, xotini Zuhaxon bilan birga Goloprison tumani "komintern" sovxoziga surgun qilingan. Ular urushga qadar sovxozda mehnat qilganlar. Urush davrida fashistlar bosqini ostida qolib ketishgan. 1946-yilda Ahmadjon aka keksayib ishga yaroqsiz bo'lib qolgan, u ikkinchi guruh nogironi edi. Xotini ham nogiron bo'lgan. Turmush kechirishi o'g'irlashib qolgani bois ular Goloprison tumani ichki ishlar bo'limiga maxsus komendaturasining 1946-yil 30-sentaybrdagi qarori bilan Ahmadjon va turmush o'rtog'i Zuhaxon o'z surgundan ozod qilindilar va ularning doimiy yashash uchun Namanganga jo'nab ketishga ruhsat berildi.

Hamraqulov Dehqonboy – 1880-yilda Namangan tumanida tug'ilgan. 1931-yilda quloq qilinib turmush o'rtog'i Nurbitxon o'z o'g'li bilan Goloprison tumani "Komintern" sovxoziga surgun qilingan. 1946-yilga kelib keksaligi bois ishlamaydi. Xotini ham nogiron bo'lgan. Yashash sharoiti nochorligi, moddiy yordamga muhtojligi sababli 1946-yil 2-oktabrda Goloprison tumani ichki ishlar bo'limi komendaturasini tomonidan surgundan ozod qilingan.

Asrlonova Obida – 1887-yilda Namanganda tug'ilgan. 1931-yili quloq qilinib, oilasi bilan Xerson viloyati Goloprison tumani "Komintern" paxtachilik sovxoziga surgun qilingan. Oilasi 1928-yilda tug'ilgan o'g'li Mamajon, qizlari Maqsuda (1934), Mavluda (1935) va 1937-yilda tug'ilgan o'g'li Hakimjondan iborat bo'lgan. Obidaxon o'z o'g'li bilan 1946-yil may oyida Goloprison tumani maxsus komendaturasiga surgundan ozod qilishni so'rab ariza yozgan. 1946-yil 4-oktabrda o'z o'g'li bilan surgundan ozod qilingan va farzandlari bilan Namangan viloyatiga doimiy yashash uchun jo'nab ketishga ruhsat berilgan¹.

Matusmanova Habibahon – 1886-yil Namangan tumani Tepaqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. 1931-yilda quloq qilinib, oilasi bilan Shadovskiy tumani 2 g'allachilik sovxoziga surgun qilingan. Turmush o'rtog'i 1934-yilda vafot etgan. 1938-yilda boshqa bir kishiga turmushga chiqqan. Turmush o'rtog'i 1941-yilda front orti ishlariga chaqirilgan va shu bilan dom-daraksiz ketgan. Matusmanova Habibaxonning qaramog'ida 1928-yilda tug'ilgan qizi Aziza va 1941-yilda tug'ilgan o'g'li Ibrohimlar bo'lgan. Shadovskiy tumani nemislar tomonidan bosib olinganda Matusmanova oilasi bilan o'sha joyda qolib ketgan. 1946-yilga kelib keksayib, kasalmand bo'lib qoladi. 1946-yil 10-mayda Shadovskiy tumani komendaturasiga surgundan ozod qilish va tug'ilgan vataniga jo'nab ketishni so'rab ariza yozgan. 1946-yil 27-sentabrda bu ariza ko'rib chiqilib, Habibaxon o'z o'g'li bilan surgundan ozod qilingan va farzandlari bilan Namangan tumaniga jo'nab ketishga ruhsat berilgan.

Keyinchalik 30-yillar oxirlariga kelib "quloq" qilinganlar, mehnat surgunidagilar sovet hukumatining qatag'on obyekti bo'lib qoldi. O'zbekiston mehnat posyolkalaridagi ko'chkindilardan 1935-1936-yillarda 101 kishi, 1937-1938-yillarda 156 kishi qatag'on etildi².

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 338.

² Шамсутдинов Р., Расулов Б. Қулоқларнинг такрор қатағон қилиниши // Жамият ва бошқарув. – Т., 2005. – № 4. – Б. 53.

XX asrning 30-yillaridagi ommaviy qatag'onlar Namanganlik ziyolilarni ham chetlab o'tmadi. "Munavvar qori va boshqalar" ishi bo'yicha 1931-yilda ko'p kishilar otishga hukm qilindi. Ular orasida Namanganlik taniqli jurnalist va shoir Lutfilla Olimiy ham bor edi. Keyin Olimiyga nisbatan chiqarilgan sud hukmi 10 yil qamoq jazosi bilan almashtirildi¹.

1937-1938-yillardagi qatag'onlik siyosati jarayonida ittifoq va respublikalarning jazo organlari tomonidan o'ylab topilgan soxta "ishlarda" ayblanib, ko'plab jamoat arboblari, xo'jalik kadrlari, din vakillari, ziyolilar va boshqalar sudsiz-so'roqsiz qamoqqa tashlandilar. Namanganlik ijodkorlardan Ibrat, U. Nosir, So'fizoda, P. Mo'min, L. Olimiy, S. Xoldorova, milliy rahbar kadrlardan I. Xidraliyev, I. Nizomboyev, M. Ermatov, N. Qoriyev, Sh. Shomansurov, Sh. Shohakimardonov, xo'jalik sohasidagi kadrlardan A. Xalilbekov, D. Egamberdiyev, harbiy kadrlardan M. Shomirboyev, H. Rahmatov, din arboblari A. Mirhayitov, I. Sayidahmedov, oddiy jamoa xo'jaligi a'zosi T. Rahimov, S. Sayidmatov, E. Shomansurov (1902-1937), H. Bobonazarov, A. Qoriyev (1894-1937), M. Mullajonov (1885-1937), A. Azizov (1905-1937), O. Hojimatov (1886-1937) kabi juda ko'plab kishilar qatag'on olamiga tortildilar. Yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslarning deyarli barchasi yetuk bilimli davlat va jamoat arboblari edilar².

Qatag'on qurbonlaridan biri Mirsaid Shomirboyev 1901-yilda Namanganda dehqon oilasida dunyoga kelgan. 1937-yilda milliy harakatlarda ishtirok etganligi tufayli qamoqqa olingan. 1940-yilning 1-mayida vafot etadi. Sobiq SSSR Oliy sudi harbiy sudlov kollegiyasining 1957-yil 20-iyul qarori bilan M. Shomirboyev o'limidan keyin oqlandi. Namangan shahar xalq bankida xazinachi, shahar musulmonlar kengashi raisi, xalq maorifi bo'limi mudiri lavozimlarida ishlagan Inomjon Nizomboyev 1931-yil 25-aprelda NKVD (OGPU) 3 lik komissiyasining qaroriga asosan, milliy harakatlarda qatnashganligi aybi bilan ayblandi va 5 yilga ozodlikdan mahrum etilib Dmitrov mehnat va ahloq tuzatish lageriga jo'natildi. I. Nizomboyevning jinoiy ishi Turkiston harbiy Okrug harbiy tribunali tomonidan 28 noyabr 1957-yilda qayta ko'rib chiqilib, 1937-yil 21-noyabrda ayblov qarori bekor qilindi va harakatdan to'xtatilib, o'limidan so'ng oqlandi³. Shuningdek Nuriddin Qoriyev 1893-yilda Namanganning Sardoba dahasida bog'bon oilasida dunyoga kelgan. 1919-1921-yillari Namangan uyezd-shahar partiya qo'mitasi byurosi a'zosi, tashkiliy bo'lim mudiri, keyinchalik ma'sul kotib, 1923-yilda Namangan uyezd - shahar ijroiya qo'mitasiga rais etib tayinlandi. N. Qoriyev 1937-yili qatag'on qilinadi. U 1958-yil 28-iyulda O'zbekiston Oliy sudining qarori bilan oqlanadi. Bu xabarni oila a'zolari qariyb 10 yildan so'ng, 1967-yilda bilganlar. Bundan tashqari ma'rifatparvar Ishoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat (1862-1937) 1937-yil 75 yoshida, ancha keksaiyib, kasallanib qolgan paytida qamoqqa olinadi. Ko'p o'tmay u ham qamoqda vafot etadi. Shuningdek Usmon Nosir (1912-1944) 25 yoshida qamoqqa olinadi. 1944-yilda qamoq lagerida ruhiy va jismoniy azoblar oqibatida vafot etadi. Qatag'on qurbonlarining qarindosh urug'lariga ular haqida aniq ma'lumotlar berilmagan, balki atayin noto'g'ri xabarlar yetkazilgan. Masalan, Usmon Nosirning qarindoshlariga 1958-yil berilgan xabarga ko'ra, uni 1952-yilda vafot etganligi aytiladi. Vaholanki, keyinchalik Usmon Nosir 1944-yilda vafot etganligi aniqlangan. Qatag'on qurbonlarining aksariyati sudsiz-so'roqsiz yoxud mavhum ayblar, turli tamg'alar hamda "uchlik" qarori bilan otib tashlangan. Namanganlik Muhiddin Shohimardonov va Mirsaid Shomirboyevlar 1937-yilda NKVD uchligi tomonidan 10 yilga qamalanganlar. M. Shomirboyev 1940-yil 1-mayida, M. Shohimardonov 1942-yil dekabrda turmada og'ir kasallikdan so'ng vafot etganlar. M. Shohimardonov O'z SSR Oliy sudi jinoiy ishlar bo'yicha sudlov kollegiyasining 1958-yil 27-

¹ Хайдаров З.У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – Б.46.

² Хайдаров З. У. 30 - 50 йиллардаги қатағонлик сиёсати ва унинг оқибатлари (Наманган вилояти мисолида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 2001. – № 6. – Б.58.

³ Хайдаров З.У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий - иқтисодий ва маданий тарихи: қиёсий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – Б.46.

iyunidagi va M. Shomirboyev respublika Oliy sudi harbiy sudlov kollegiyasining 1957-yil 20-iyun qarori bilan o'limidan so'ng oqlangan¹.

III BOB. “QULOQ” QILINGAN OILALARNING SURGUNDAGI HAYOTI

3.1. Xerson, Ukraina, Shimoliy Kavkaz va boshqa hududlarga surgun qilingan vatandoshlarimizning hayoti.

Xerson viloyatiga mehnat qilish uchun ko'chirib keltirilgan o'zbek dehqonlari notanish, begona bu yurtida mislsiz og'ir hayot kechirishga majbur bo'ldilar. Ularda pasport bo'lmagan, o'rnatilgan joyidan boshqa shahar va qishloqqa borib kelishi man etilgan, turar joylari nihoyatda yomon holatda bo'lgan. Ularga Ukrain xatalari ajratilgan. Bu xatarlar egalari ham quloq qilinib, Sibir va boshqa joylarga surgun qilingan edi. Shu sababdan xatarlar tashlandiq, eshik, derazalari, poli yo'q, zaxkash holatda edi. Ukrain xatalari bir-biri bilan tutash ikki qismdan iborat bo'lib, birida oila yashasa, ikkinchisida uy hayvonlari saqlangan.

O'zbeklar yashaydigan maxsus qishloqda avvalida inson yashashi mumkin bo'lmagan holatda bo'lgan. Ular odamlar yashamaydigan, huvillab qolgan, atrof-tevaragi dashtlik joylarga keltirilgan. Ayrim oilalar ochiq, dalaga olib kelib tashlangan. O'zi bilan bolta, arra, ketmon, belkurak olib kelmagan oilalarning tirikchilik qilib ketishi og'ir kechgan. Bunday oilalarning ayrimlari ochlik, sovuq, izg'irin shamolda og'ir kasalliklarga uchrab o'lib ketganlar. Mehnat qurollariga ega bo'lgan oilalar darhol erto'lalar kovlab, daraxt, to'ngaklar arralab, o'tin va yopiq qilib, bir amallab tirik qolganlar. Shunga o'xshash nihoyatda og'ir sharoitlarda maxsus qishloqlar, mehnat posyolkalari yuzaga kelgan. Ularda asta-sekin yangi qurilgan uylar paydo bo'la boshlagan. Ammo yaqinroq, qabristonlarda qabrlar soni tez sur'at bilan o'sib bordi. Yosh bolalar, chol va kampirlar, kasallikka chalingan katta-yu kichik yoshdagilar o'limi odatiy hol edi².

O'zga yurtlarda “maxsus surgun qilingan” o'zbeklar qanday og'ir sharoitlarda paxta etishtirishda azob chekkanlari haqida Faxriddin Umarov mana bunday eslaydi: “O'sha paytda Skadovskiy tumanida ikkita yirik paxtachilik xo'jaligi tashkil etilgan, “ko'chmanchilar” ning asosiy qismi ana shu xo'jaliklarda “ota kasbi” - paxtakorlik bilan mashg'ul bo'ladilar. Skadovskiydagi paxtakor xo'jaliklar lalmikor erlarda tashkil etilgan bo'lib, qora tuproqli yerlarga ekiladigan g'o'za yomg'ir bilan sug'orilardi. Tuproq unumdor bo'lsada, ammo ob-havo issiqligi O'zbekiston sharoitiga nisbatan xiyla past bo'lganligi tufayli g'o'za shoxlaridagi shiril-shiril ko'saklar ochilib ulgurmasdanoq, sovuq kunlar boshlanib ketardi. Kechalari torgina kulbalarga qamalib olib, tongacha ko'sak chuvilardi... Ukrainaning Skadovskiy tumanida tashkil etilgan paxtachilik davlat xo'jaliklari mahalliy aholi yashaydigan xutorlardan ajratib qo'yilgan, “ko'chmanchi” lar huddi mavsumiy mardikorlar kabi o'zi bilan o'zi ovora edi³.

1931-yil iyuliga qadar ko'chirib keltirilgan “maxsus ko'chirilganlar” va ularning barcha muammolari bilan o'lka va viloyat ijroqumlari shug'ullanganlar. SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1931-yil 1-iyuldagi “Maxsus ko'chirilganlarni joylashtirish tog'risida” gi Qarori bilan ularni ma'muriy jihatdan boshqarish OGPU organlariga yuklatiladi.

Badarg'a etilgan quloqlar uchun SSSR hukumatining 1931-yil-16 avgustdagi qaroriga ko'ra OGPU tizimida, 1934-yilda esa NKVD tizimida GULAG (Qamoq lagerlari davlat boshqarmasi) maxsus (mehnat) qishloqlari tashkil topgan. Bu mehnat posyolkalarini boshqarish, nazorat qilish, ularga xo'jalik, maishiy xizmat ko'rsatish ishlari va surgun qilingan quloqlardan mehnatda foydalanish mas'uliyati GULAG lar zimmasiga yuklatilgan. Har bir mehnat posyolkasida komendatura tashkil qilingan.

¹ НВДА, 267 – фонд, 1 – рўйхат, 111 – иш, 44 – 52 вароклар.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 117.

³ Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. “Кулоқлар” нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

Dastlabki yillarda mehnat uchun ko'chirilganlar nihoyatda og'ir, fojeali hayot kechiradi. Ayniqsa, ular 1932-1933-yillardagi ocharchilik, qahatchilikdan o'ta kuchli azob chekadi. Moddiy ahvol chidab bo'lmas darajada og'ir edi, ocharchilikdan ko'plab odamlar o'lib ketadi.

Har bir mehnat ko'chkindisi o'z qaramog'idagi oila a'zolari bilan birgalikda mehnati evaziga oyiga 9 kg un, 9 kg krupa, 1,5 kg baliq, 0,9 kg shakar olardi. 1933-yil 1-yanvardan bu norma yanada kamayib, oyiga 5 kg un, 0,5 kg krupa, 0,8 kg baliq, 0,4 kg shakar beriladigan bo'ladi. Bunday oz miqdordagi oziq-ovqat "quloq" oilalarga urpoq ham bo'lmasdi. Oqibatda ular inson tanavvul etmaydigan jonli va jonsiz narsalarni eyishga ham majbur bo'lganlar¹.

Ochlikdan o'lib ketmaslik uchun bechora yurtodoshlarimiz muhtojlik, g'ariblikning hamma "ko'cha" laridan o'tganlar. Birgina o'zbeklar emas, qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, ruslar, ukrainlar va yaxudiylar ham bu "quloqlar surguni" da shunday dahshatli ocharchilikni boshdan kechiradilar. Rasmiy ma'lumotlarda it, mushuk va o'lib qolgan hayvonlar go'shtini yeb tirikchilik qilish hollari mavjud bo'lgani qayd etilgan. Ocharchilik tufayli kasallik, o'lim keskin ko'payib ketgan. O'sha mudhish ocharchilikni boshidan kechirgan, hozirda Andijon shahrida yashayotgan Adolatxon aya Boltaboyevaning eslashicha, surgun qilingan o'zbeklar Kaxovskiy tumanidagi Cholbas, Mixaylovka, Suvorovka, Galinka, Pokrovskaya kabi qishloqlarga keltirilgan. Ular o'ziga xos bo'lgan mahallalar tashkil etishgan. Ocharchilik juda dahshatli bo'lgan. Har bir oilada ikki-uchtadan, hatto undan ko'p kishilar ochlikdan o'lgan. O'lim oddiygina voqea bo'lib, kishilar "ha, bechora bu dunyo tashvishlaridan qutilibdi",-deydigan darajaga yetgan².

Surgundagi hayot azob-uqubatlarini o'z boshidan o'tkazgan, u vaqtda 7-8 yashar bola bo'lgan Faxriddin Umarov yana shunday eslaydi: "Eng to'ng'ich akam otam bilan surgundan surgunga ketgan bo'lsa ham undan boshqa akalarim biz bilan birga edilar. Ular hali yosh, qo'llaridan jiddiy ish kelmasdi, lekin ro'zg'orimizning og'irini yengil qilish uchun kechani kecha, kunduzni kunduz demay, qora terga botib mehnat qilishardi. Bir etak bola yolg'iz onamizning qo'lga qarab qoldik. Har kuni dasturxonga mag'izini siqsangiz suv tomchilaydigan qop-qora buxanka qo'yilsa, ko'zlarimiz chaqnab ketardi, qult-qult yutinamiz, ko'kraklari chetanga o'xshab qolgan bolakaylarning ahvolini ko'rgan kattalar yuzlarini chetga buradilar, yoki "qornim to'q, o'zlaring olinglar", deyishib o'rinlaridan turib ketadilar. "Falonchi bilan falon joyda falon narsa edik", deb qachonlardir og'zimizga solgan emishimizni aytib, biz bolalar ham dasturxondan chetroqqa surilib o'tiramiz. Shundan so'ng onam noiloj "bilaman, hammangiz to'ygan ko'ziga o'xshaysiz, iloyim, ko'z tegmasin. Lekin har kim o'z ulushini olmasa, og'zimdagi luqmam ham ichimga tushmaydi" derdilar... . Bitta mayizni qirq kishi bo'lib egan, degan gapga men o'shanda ishonganman"³.

1937-yilgi dahshatli ocharchilik "maxsus surgun qilinganlar" ni chetlab o'tmadi. "Quloqlar surguni" da tug'ilishga nisbatan o'lim 5 marta ko'p bo'ldi. Bu o'rtacha ko'rsatkich bo'lsa, undan yuqorisi, masalan, Shimoliy Qozog'istonda 14,5 marta, Boshqirdistonda 10,4 marta, O'rta Osiyoda 8,3 marta, O'rta Volgada 7,6 marta o'lim ko'p bo'lgan. 1933-yili "quloqlar surguni" da hammasi bo'lib 1708 bola tug'ilgan bo'lsa, o'lganlar 151601 kishini tashkil qilgan. Agar 1933-yili "quloqlar surguni" da tug'ilishga nisbatan o'lish 8,9 marta ko'p bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Shimoliy Kavkazda 20,8, Shimoliy Qozog'istonda 19,1, Ukrainada 15,7, O'rta Volgada 15,6, O'rta Osiyoda 14,4, Uralda 13,1, Janubiy Qozog'istonda 12,7 marta ko'p bo'lgan⁴.

¹ Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. "Кулоқлар" нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 118.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 119.

⁴ Шамсутдинов Р., Расулов Б. Кулоқларнинг такрор қатағон қилиниши // Жамият ва бошқарув. – Т., 2005. – № 4. – Б. 53.

1934-yili “quloqlar surguni” da 14033 kishi tug’ilgan bo’lsa, 40012 kishi o’lgan. O’rta Osiyoda tug’ilish 301, o’lim 518, Ukrainada tug’ilish 179, o’lim 538, Shimoliy Kavkazda tug’ilish 311, o’lim 1585 kishini tashkil etgan. 1932-1933- yillarda ocharchilik shu darajada kuchli va fojeali bo’lganki, ochlikdan 7 milli- onga yaqin kishi o’lgan. Hukumatdagilar odam odamni yeb qo’yishdek daxshatli hodisalardan 2000 dan ziyodini qayd qilishga majbur bo’lganlar. Ko’pincha onalar o’z bolalarini o’ldirib, yeb qo’rganlar. Ayrim tumanlarda aholining 1/4 qismi, hatto yarmigacha ochlikdan o’lib ketgan¹.

Shunday bir fojeali vaqtda dehqonlardan tortib olingan g’alla yomon saqlanganligi uchun chirib ketayotgan edi. Aroq ishlab chiqaradigan zavodlar ishni to’xtatmay g’alladan spirt ishlab chiqaravergan. Hukumat xorijga g’alla sotishni davom ettiravergan. Rasmiy ma’lumotlar bo’yicha, 1932 -yilda G’arbiy Yevropa 1,8 million tonna, 1933-yilda esa 1 million tonna g’alla sotilgan. Sovet gazetalari ocharchilik haqidagi barcha xabarlarini rad etavergan. Ukrainaga bir qancha taniqli xorijliklarga borib kelishga ruxsat berilgan. Fransiya bosh vaziri Eduard Errio 1933 yili Kievda va boshqa shahar hamda qishloqlarda bo’ladi. Uni to’kin, boy dasturxon bilan kutib olishadi. Ukrainani tark etayotib, u “Ocharchilik haqidagi gap natsistlar to’qib chiqargan katta yolg’onning o’zi ekan” deydi. Angliyalik yozuvchi Bernard Shou SSSR da bo’lib, ocharchilik haqidagi mish - mishlarni rad etib, “Men biron - bir joyda Sovet ittifoqidagidek yaxshi tushlik qilgan emasman”, - deb yozgan edi².

1933-1937-yillarda Xersondagi o’zbek dehqonlari va ularning bola-chaqalari mislsiz og’ir va achinarli ahvolda kun kechirganini hatto mansabdor shaxslar ham tan olishga majbur bo’lganlar.

Ukrainaga ko’chirib keltirilganlarning aksariyati paxtachilik bilan mashg’ul bo’lgan. Markaziy hukumat Ukrainada paxtachilikni joriy qilish va rivojlan- tirishga alohida ahamiyat bergan. Jumladan, paxtachilik sovxozlari ishchilariga ocharchilik avjiga chiqqan davrda qo’shimcha g’alla bilan ta’minlash imtiyozlari berilgan. Kimda kim paxta etishtirish bilan band bo’lsa, u belgilanganidan ko’ra ko’proq bug’doy bilan ta’minlanishi ko’zda tutilgan. Ammo bu imtiyozdan ma- halliy hukumat rahbarlari manfaati uchungina foydalandi. Natijada paxtakorlar mehnati rag’batlantirilmay, paxta tayyorlash qoniqarsiz ahvolda tushib qoldi. 1932-yil hosilini yig’ishtirib olish barbod bo’lib, butun paxta qor ostida qolib ketdi. Buning sabablarini tekshirgan Odessa viloyati nazorat komissiyasi va ishchi-dehqon inspeksiyasi Kaxovski tuman ijroko’mi raisi Alekseenko tomonidan paxtakorlar uchun berilishi lozim bo’lgan 29 tonna bug’doyini shu tumanga biriktirilgan vakillar bilan birgalikda o’zlashtirib yuborilganini aniqlaydi. Mehnat surgunidagilarning achinarli ahvoli va muammolari haqida ko’plab shikoyat, ariza va talablar yuqori hukumat organlariga yetib borar, unga asosan ma’lum choralar ham ko’rilar edi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi Butunittifoq ko’chiruv komiteti o’z vakillarini joylarga yuborib, ular orqali ham ahvoldan voqif bo’lar va tegishli tadbirlar belgilardi.

1934-yil 26-fevralda bu ko’chirish komiteti Ukraina Kompartiyasi Markaziy Komiteti kotiblari Kosior, Postishev, USSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Chubar nomiga yo’llagan ma’ruzanomada joylardagi mehnat qilish uchun ko’chirib keltirilganlarning og’ir ahvoldaligi, ular vakillarining shikoyatlari haqida ma’lumot berib, bunday holatga barham berishni so’ragan.

Ko’chirib keltirilganlar uchun uy-joy ajratishga kam e’tibor berilgani oqibatida ayrim xo’jaliklar yerli oilalarga ijarachi sifatida joylashtirilgan, bu esa ular o’rtasida nosog’lom muhit yaratgan. Oqibatda ko’chirib keltirilganlarning ketib qolish xollari yuz bergan.

Ayrim kolxoz va sovxozlar ko’chirib keltirilganlarga yomon munosabatda bo’lgani, xatto ular buyumlari (oyoq kiyimi, oziq-ovqatlari) o’g’irlab qo’yilayotgani, xatalarning sovuqligi, bir xataga 2-3 oila joylashtirilgani, o’g’irlik, bosqinchilik ham yuz berayotgani xatda kelgirilgan. Ko’chirib keltirilganlarni mazax qilish, ular ustidan kulish, xaqoratlash, hattoki do’pposlash

¹ Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. “Кулоқлар” нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 120.

hollari yuz bergan. Bir gurux ko'chirib keltirilganlar o'z shikoyatlarida "bizni bu joyga o'lib ketish uchun yuborganmisizlar" degan fikr bildirganlar. Ulardan biri shunday degan: "Bizlarni sovuq xatalarga joylashtirdilar, molimiz hozirgacha ko'chada tunab chiqmoqda, ikki xaftadan beri oziq - ovqatlarimiz stansiyada ochiq havoda qolib ketdi. Tashib keltirish uchun transport yo'q. Menga bergan uyni uch kun o'tgach olib qo'yishdi, boshqa joyga xaydashdi, keyin bu yerdan ham xaydashadi. Ahvol juda ham og'ir"¹.

Ko'chirish komitetiga 1934-yil 21-fevralda 28 ta, 22-fevralda 45 ta, 23-fevralda 38 ta shikoyat tushgan. Ko'chirib keltirilganlarning og'ir ahvolidan kelib chiqib, ma'ruzanomada keltirilgan faktlarni tekshirib chiqish va ularning sodir bo'lishidagi aybdorlarni jazolash tuman partiya komitetlari, MTS lar siyosiy bo'limlari zimmasiga yuklatiladi. Ko'chirib keltirilganlarni xo'jalik jixatdan joylashtirishni tubdan yaxshilashga erishish zarurligi ko'rsatiladi.

Mehnat uchun ko'chirib keltirilganlar moddiy-maishiy sharoitlarining qoniqarsizligi haqida Ukraina respublikasi GPU raisi o'rinbosari Katsnel'sonning respublika Kompartiyasi Markazqo'mi kotiblari S. V. Kosior, P. P. Postishev (ular qatag'on qilinib, 1939-yilda otib tashlangan), Xalq Komissarlari Soveti raisi Lyubchenko nomiga yo'llagan 1934-yil 29-apreldagi 2732-sonli maxsus ma'lumotnomasida ham Odessa viloyatidagi ahvolga to'xtalib o'tilgan. Bu hujjatda sharoit yomonligi oqibatida ko'chirib keltirilganlarning vatanlariga qaytib ketish oqimi ancha ko'payib borayotgani e'tirof etilgan.

Ko'plab ko'chirib keltirilganlar uchun so'nggi vaqtgacha uylar berilmagani, ta'mirlash uchun ajratilgan binolar ta'mirlanmay qolib ketgani, oqibatda odamlar to'p-to'p bo'lib yashashlari, har bir uyda 2-3 oila joylashgani, ayrimlari kolxozchilar uylarining bir burchagida jon saqlayotganliklari, buning ustiga bu kolxozchilar ularning shunday og'ir hayot kechirayotganliklarini ham xohlamayotganliklari ma'lumotnomada keltirilgan. Ba'zi kolxoz rahbarlari ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'ni boshqa maqsadda ishlatishgan. Ko'chirib keltirilganlarning ayrim guruhlariga oziq-ovqat va yem-xashak ajratilmagan. Ularda mavjud oziq-ovqat zahiralari tugab qolgan, oziq-ovqatga bo'lgan chuqur muhtojlikni o'z boshidan kechirgan.

Ukraina respublikasi rahbarlari Lyubchenko, Kosior 1934-yil 25-mayda Odessa viloyat partiya komiteti va ijroko'miga xat yo'llab, ko'chirib keltirilganlarga yaxshi e'tibor bermaslik oqibatida ularning ketib qolish hollari ko'payib borayotganligi, shu bois ko'chirib keltirilganlar orasida ishni kuchaytirish, bu ishga kampaniyachilik bilan emas, o'z ish faoliyatining tarkibiy qismi deb qarashga joylardagi rahbarlar e'tiborini qaratadi. Ularga kooperativ va davlat savdosi bilan xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash, qurilish materiallarini birinchi navbatda ularga ajratish kerakligi, iyun-iyul oylarida yangi hosil olish davrida ko'chirib keltirilganlarga ahamiyatni kuchaytirish kerakligi ham alohida ko'rsatilgan.

Ukraina Kompartiyasi Markazko'mining birinchi kotibi P.P. Postishev Siyosiy byuroning 1934-yil 11-noyabrdagi yig'ilishida ko'chirib keltirilganlarning ahvoli masalasi bo'yicha qator tanqidiy fikrlarni aytadi. Ko'chirib keltirilganlar masalasi bilan mashg'ul bo'lish to'laligicha viloyat partiya komitetlari zimmasiga yuklatiladi. Ko'chirib keltirilganlar uchun mavjud sharoitlar og'irligini ko'chirib keltirilganlar bilan yana qaytib ketganlar miqdorining nisbatidan ham bilsa bo'ladi. 1935-yil 28-aprelgacha bo'lgan ma'lumotga ko'ra, Odessa viloyatiga 11962 kishi ko'chirib keltirilgan, shu davrda esa 9006 kishi ketib qolgan. O'zbeklar ishlayotgan Kaxovskiy tumani bo'yicha kelganlar 273 kishini, ketib qolganlar 250 kishini tashkil qilgan².

SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi nazorat komissiyasi raisi N. K. Antipov 1937-yil 13-mayda Ukraina Kommunistik (bol'sheviklar) partiyasi Markazqo'mi kotibi S. Kosiorga yo'llagan 739/S - raqamli mahfiy xatida shunday yozgan: "Odessa viloyatida paxtachilik sovxozlarida mehnat uchun ko'chirib keltirilgan o'zbeklarga nisbatan noto'gri munosabatda

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 121.

² Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. "Кулоқлар" нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

bo'layotganligi haqidagi o'rtoq Feyginning xatini sizga yubormoqdaman. Ayni vaqtda o'rtoq Chernovga ahvolni tuzatish uchun choralar ko'rishni, aybdorlarni javobgarlikka tortishni taklif qilaman"¹.

Quyida V. Feyginning N. K. Antipov nomiga yozilgan mahfiy xatini aynan keltiramiz: "Biz tomonimizdan Odessa viloyatidagi paxtachilik sovxozlarida o'tkazilgan tekshiruvda bu sovxozlardagi mehnat uchun ko'chirib keltirilgan o'zbeklarga mutlaqo chidab bo'lmaydigan darajada munosabat bo'layotganligi aniqlandi.

Viloyatdagi 4 ta sovxozda hammasi bo'lib, 14713 kishi o'zbeklardir, ulardan 8751 kishi mehnat qilmoqda (qolganlari boqimanda). Bu paxtachilik sovxozlaridagi asosiy ishchi kuchidir. Ma'muriyat va ta'minlovchi personal tomonidan o'zbeklarga bo'lgan munosabatni buyuk davlat shovinizmi degan nomdan boshqa nom bilan atash mumkin emas. Xamma narsada o'zbeklar bilan o'zbek bo'lmaganlar o'rtasidagi tengsizlik farqi yaqol ajralib turibdi, ustiga-ustak, o'zbek bo'lmaganlar o'zbeklarga qaraganda har doim imtiyozli mavqega ega.

O'zbek oilalarining aksariyat ko'pchiligida krovatlar yo'q, matraslar, odeyal va yostiqlar yo'q. Oyoq kiyimi va kiyim-kechak yetishmovchiligi nihoyatda ayanchli ahvolda, ayni vaqtda sovxozlardagi rus aholisi bunday buyumlar bilan ancha yaxshi ta'minlangan.

Bunday ahvol sanoat mollarining yetarli darajada olib kelinmayotganligi bilangina emas, sovxozlar bazilariga keltirilayotgan mollar rus aholisi tomonidan olib qo'yilishi bilan izohlanadi. O'zbeklar esa sanoat mollari kelgani haqidagi xabarni bunday mollar rus aholisiga sotilib bo'linganidan keyingina bilmoqdalar.

Sovxozlarda g'alla sotish etarli darajada yo'lga quyilmaganligi oqibatida o'zbeklar yon atrofdagi kolxozlardan bug'doy sotib olishga majbur bo'lmoqdalar, sotib olgan bu bug'doyni sovxozga olib kelish uchun nihoyatda qiynalmoqdalar. Chunki bu borada sovxozlar ma'muriyati yordam ko'rsatishdan butunlay bosh tortmoqda. Vaholanki, sovxozlarda don tashuvchi otlar mutlaqo bekor turibdi. Sotib olib keltirilgan bug'doyni un qilib berishdan sovxozlardagi tegirmon egalari mutlaqo sababsiz bosh tortmoqdalar. Oqibatda o'zbek ayollari bug'doyni kelilarda tuyib un qilib kun kechirmoqdalar. Bunday ahvol Skadovskiy tumanidagi 1-paxtachilik sovxozida mavjud.

Ko'chirib keltirilganlarning rus tilini bilmaganliklaridan foydalanib, ularning pulidan, ish haqidan urib qolinmoqda, ularga noqonuniy har xil jarimalar solinmoqda, mahsulotlarga o'zlari istagancha qimmat, noto'g'ri narxlar qo'yib sotilmoqda. Bu ahvol Skadovskiy tumanidagi paxtachilik sovxozlarida, "Komintern" sovxozida mavjud.

O'zbeklar cho'chqa go'shtini yemasliklarini bila turib o'zbek brigadalarida traktorчилarga tushlikni cho'chqa go'shtidan tayyorlamoqdalar, buning oqibatida o'zbek traktorчилari dalada tushlik qilishdan butunlay voz kechmoqdalar (4-bo'limdagi Qayumov brigadasi). Shunisi xarakterliki, nazoratchimizning "3-bo'limda ishchilar soni qancha?" deb savol berganida bo'lim agronomi Sulikov "5 ishchi bor, qolganlari o'zbeklar" deb javob qildi"².

Odamlarga nisbatan bunday noinsoniy munosabatni ko'chirib keltirilganlar turar joylarining nihoyatda ayanchli ahvolda ekanligidan ham bilsa bo'ladi. O'zbek oilalari nurab borayotgan uylarda ayanchli holatda kun kechirmoqdalar. Skadovskiy tumanidagi 1 sovxozda 15-18 kv.m maydonda 8-10 kishi yashamoqda. Otajon Boyazovning 10 kishidan iborat oilasi 18 kv.m joyda kun kechirmoqda. Nurmat Barotboevning 9 kishidan iborat oilasi 15 kv.m maydonda yashamoqda. Bu turadigan uylar nihoyatda iflos, poli yerdan, uy derazalariga oyna solinmagan. Xo'jalik uchun yopiq bo'lmagani sababli ko'chirib keltirilgan odamlar o'zlari yashab turgan xarob uylarida o'zlarining shaxsiy mayda hayvonlariga ham joy berib yashamoqdalar.

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 122.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 121.

Skadovskiy sovxozida 1933-yildan beri hammom qurishmoqda, hozirda ham tugallangani yo'q. Faqat ikkita bo'limda hammom uchun moslangan yopiq joy bor, ishchilarning ko'pchiligi va ularning oilalari esa hammomda yuvinish imkoniga ega emas. Xususan, qishda buning hech qanday iloji yo'q.

Mazkur 4 ta sovxoz buyicha madaniy xizmat ko'rsatish uchun yiliga 2 million so'mdan iborat katta mablag' ajratilmoqda. O'zbeklarga madaniy xizmat ko'rsatish ishi esa mislsiz yomon holatda. Yoshi 16 dan 50 gacha bo'lgan o'zbeklarning 33 foizi savodsizdir, shundan 610 kishi (40 foiz), ya'ni 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'smirlar savodsizdir. Maktab yoshidagi bolalarning 7 foizi mutlaqo maktabga jalb etilmagan. O'zbek maktablaridagi ta'lim-o'quv ishlarining ahvoli lini biror kimsa tekshirmaydi va bu ishga hech kim rahbarlik qilmayapti ham.

Mehnat uchun ko'chirib keltirilganlarga tibbiy xizmat ko'rsatish, Kaxovskiy sovxozidan bundan mustasno, o'ta qoniqarsiz darajada. Bunday nochor ahvol o'zbek aholisi orasida tug'ilishga qaraganda o'lim miqdorini ortirib yubordi. 1935-yilda 247 kishi tug'ilgan bo'lsa, ya'ni bu aholi-ning 2,7 foizini tashkil etgani holda, 407 kishi o'lgan (aholining 4,5 foizi). 1936-yilda 260 kishi tug'ildi va 291 kishi o'ldi yoki o'zbek aholisi orasida tug'ilish 3,4 foizni, o'lim esa 3,7 foizni tashkil qilgan.

Sovxozlarda o'zbeklarning qochishi o'sib bormoqda. Agar 1936-yili Kaxovskiy sovxozidan 17 kishi qochgan bo'lsa, 1937-yilda esa 1 kvartalning o'zida 16 kishi qochgan. "Komintern" sovxozidan esa 1936-yilda 58 kishi, 1937-yil 1 kvartalida esa 35 kishi qochgan. Skadovskiydagi ikkita sovxozda 1936-yilda 25, 1937-yil 1 kvartalida 11 kishi qochgan.

Ayni vaqtda ko'chirib keltirilgan o'zbeklarning ko'pchiligi halol mehnat qilmoqda, ulardan ko'plari esa juda ham yaxshi natijalarga erishdi. Skadovskiy tumanidagi 1 sovxozda 1936-yili dala brigadalariga birlashtirilgan 532 o'zbek kishisidan 71 foizi paxta qatorlariga ishlov berishning belgilangan normasini rejadan oshirib bajarganlar (173000 pogon metrni bir kishi sezon mavsumida bajarishi kerak edi). Ulardan rejani 162 kishi 150 foiz, 173 kishi 150 dan 200 foizga va 37 kishi 200 foizdan oshirib bajargan.

Paxta terimi masumida har bir kishiga 16 tsentner paxta terish norma qilib belgilangani holda terimchilarning 60 foizi normani oshirib bajardi. Ulardan normani 165 kishi 150 foizga, 80 kishi 150 dan 200 foizga va 49 kishi 200 foizga oshirib bajardi.

O'rtoq Chernovga sovxozlardagi mavjud ahvolni o'zgartirish va aybdorlarni javobgarlikka tortish vazifasini yuklash zarur. Odessa viloyatida paxtachilik sovxozlaridagi bu ahvol bilan Ukraina Kommunistik (bol'sheviklar) partiyasi Markaziy Komiteti ham qiziqib ish tutsa maqsadga muvofiq ish bo'lar edi"¹.

1937-yilgi ma'muriy bo'linish tufayli Odessa viloyatidan Nikolayev viloyati ajralib chiqdi. Uning tarkibiga Goloprstan, Kaxovskiy va Skadovskiy tumanlari kiradi. Nikolaev viloyatini boshqarish vaqtinchalik Respublika Oliy Sovetining Nikolayev viloyati bo'yicha tashkiliy komiteti qo'liga o'tadi. Tashkiliy komitetning 1937-yil 28-dekabrda "Nikolayev viloyatidagi mehnat posyolkalarida mehnat qilish uchun ko'chirib keltirilganlarga xizmat ko'rsatishning ahvoli to'g'risida" gi masalani muhokama qilishi va tegishli qaror qabul qilish borasida tadbir-choralar belgilashi bu yerdagi o'zbek quloqlari taqdirida ma'lum ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur masala bo'yicha Vaymerman ma'ruza qiladi. NKVD ning Nikolayev viloyatidagi mehnat posyolkalarida mehnat qilish uchun ko'chirib keltirilganlarga xizmat ko'rsatish ahvolini batafsil tahlil qilib, ma'ruzachi paxtachilik sovxozlari direktorlari, tuman va viloyat tashkilotlari (tuman ijroko'mlari, yer boshqarmasi, sovxozlar sektsiyasi, xalq ta'limi bo'limi, sog'liqni saqlash bo'limi va boshqalar) ning sovet va partiya organlarining mehnat uchun ko'chirib keltirilganlarga xizmat ko'rsatish masalasi bo'yicha direktiv ko'rsatma va qarorlarini buzayotganliklarini, bu masalaning o'ta siyosiy ahamiyatga molikligini tushunmaganliklarini,

¹ Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. "Кулоклар" нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

ularning ko'chirib keltirilganlarni doimiy yashab ketishlariga ko'niktirish va uni mustahkamlashni bilmasliklari uchun qattiq tanqid ostiga oladi.

Mustabid sovet davrining eng fojeali, alamli, aytish mumkinki, dahshatli, qonli sahifalaridan biri 30-yillardagi qatag'on - "xalqlar dohiysi" boshlab bergan "katta terror" tufayli yuz minglab, millionlab begunoh odamlarning jismonan yo'q qilinishi, qirg'in etilishidir. Partiya o'zini o'zi, davlat o'zini o'zi qatag'on qilishdek tarixda hech sodir bo'lmagan mudhish siyosat amalga oshirildi. Oqibatda sovet jamiyati aholisining qatag'on tig'i tegmagan biror bir qatlami qolmadi. Partiya va davlat arboblari, hukumat, harbiy, iqtisodiyot rahbarlari, xodimlari, aqliy mehnat qilishlari, ishchilar, dehqonlar, qariya yoshlar, erkagu ayollar, turli xil millat vakillari qatag'on qilindilar. Bu qismat o'z yurtida quloq, qilinib Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Xerson, Sibirga badarga qilingan o'zbek dehqonlarini ham chetlab o'tmadi. Qatag'on qilinganlar yana bir bor qatag'on tig'iga uchrab qattol tuzum qurboni bo'ldilar. Ularning ma'lum qismi o'sha o'zga yurtlarda shahid bo'lib, kafansiz, janovasiz ko'mildilar.

3.2. "Quloq" larning o'z Vatanlariga qaytarilish jarayonlari.

Vatandoshlarimizning "quloq" likdan ozod bo'lib, fuqarolik maqomiga va pasportiga ega bo'lib surgundan yurtga qaytish jarayoni juda ham og'ir va uzoq kechgan. U 1934-1956-yillarni, ya'ni 20-yildan ko'proq vaqtni qamrab olgan.

SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1934-yil 27-maydagi maxsus qarori bilan surgundagilarning saylov huquqi tiklandi. Bu mantiqan quloq, qilinib mehnat posyolkalariga surgun qilinganlarning avvalgi o'z joylariga ko'chib kelishini taqozo etardi. Qaror chiqqanidan to 1934-yilning 1-noyabriga qadar mamlakat bo'yicha 8505 oila – 31364 kishining saylov huquqi tiklandi. Oqibatda mehnat posyolkalarida bor-yo'g'i 2488 oila, ya'ni 7857 kishi qoldi, qolganlari o'z joylariga qaytib keldi¹. O'zbekistondan Ukraina, Shimoliy Kavkaz va Qozogistonga surgun qilingan "sobiq quloqlar" ning ham kichik bir qismi o'z vataniga qaytdi. Biroq Markaziy hukumat bundan vahimayu-sarosimaga tushadi. Lager boshqarmasi boshlig'i M. Berman 1935-yil 2-yanvarda Ichki ishlar xalq komissari G. G. Yagodaga yo'llagan raportida maxsus ko'chkindilarning fuqarolik huquqini ommaviy tiklashni taqiqlab qo'yish, huquqini tiklanganlarni esa surgun joylaridan o'zlarining avvalgi yashash joylariga yubormaslikni talab qilib chiqadi. Raport bilan tanishgan G. G. Yagoda saylov huquqi tiklanganlarni yana o'zlarining joylariga qaytarmaslik kerak, agar bu haqda qonun bo'lmasa, u holda Markaziy Ijroko'mga murojat qilish kerak, raqamlarni keltirib xat tayyorlang, deb rezolyutsiya qo'yadi. G. G. Yagoda bu bilan kifoyalanmasdan darhol I. V. Stalinga murojaat qiladi. Natijada 1935-yil 25-yanvarda SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining qarori e'lon qilinadi. Unda garchan sobiq quloqlarga saylov huquqi berilgani bilan ularning surgun joylaridan o'zlarining avvalgi yashagan joylariga ketishiga ruxsat berilmaydi, deb uqtiriladi. Xullas, surgundagi odamlar avvalgidek huquqi cheklanganligicha qolaverdilar.

VKP(b) MK va SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1935-yil 15-noyabrdagi qaroriga ko'ra "sobiq quloqlar", ya'ni "mehnat surgundagilari" ning farzandlari to'liqsiz o'rta maktabni bitirgan bo'lsalar ular texnikum va boshqa o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirish, o'rta maktablarni bitirganlar esa oliy o'quv yurtlariga kirish huquqiga ega bo'ldilar. Natijada mehnat surguni qishloqlarida erkin kishilar soni ko'payaverdi. Bundaylar 1932-yili 4234 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1936-yilda bu raqam 43228 ga yetdi. 1936-yil 5-dekabrda SSSR Konstitutsiyani qabul qilindi. "Sobiq quloqlar" bundan juda katta umidvor edilar. Ular endi teng huquqli bo'lamiz, ozod bo'lib o'z yurtlarimizga ketishga erishamiz deb o'ylardilar. Chindan ham konstitutsiyaning 135-moddasida "Mehnat ko'chkindilari" ham teng huquqli fukaqolar deb e'lon qilingandi. Shu bois 1936-1937-yillar chegaralarida "surgun qishloqlari"da hissiy ko'tarilish yuz berdi, ko'plab "maxsus ko'chkindilar, mana endi bizlar ham huquqda teng bo'lamiz va yaqinda o'z qishloqlarimizga ketamiz" deb ishonadilar. Ammo ularning bu umidlari barbod bo'ladi. Ularga

¹ Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. "Кулоқлар" нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

mehnat posyolkalaridan ketishlari mumkin emasligi tushuntiriladi. Mehnat surgun- dagilarining to'la teng huquqiga deklarativ safsata ekani ma'lum bo'ladi. Oqibatda ulardan ko'plab shikoyatlar tushaboshlaydi, "quloqlar surguni" dan qochish yo'llari keng tus oladi. 1932-yildan 1940-yilgacha "quloqlar surguni" dan 629042 kishi qochadi. Shu davr ichida qochganlardan 235120 kishi mehnat posyolkalariga qaytarib olib kelinadi¹.

1938-yil 22-oktyabrda SSSR XKS 'Maxsus ko'chkindilar va surgun qilinganlar farzandlariga pasportlar berish tug'risida" qaror qabul qiladi. Unga asosan, surgun qilinganlarning farzandlariga 16 yoshga to'lishi bilan umumiy qoidaga muvofiq tarzda pasport beriladigan bo'ldi. Ular endi o'qishga borish, ishga kirish, hatto mehnat posyolkasini tark etish huquqiga ega bo'ldilar. Erkin fuqorolik bilan turmush qurgan maxsus ko'chirib keltirilganlar "quloqlar surguni"ni tark etishlari ham mumkin edi. O'sha 22-oktyabrdagi qarorga muvofiq 1939-yili 1824, 1940-yili esa 77661 kishi ozod qilindi. 1939-1940-yillari o'qishga borish bilan bog'liq tarzda 18451 kishi ozod bo'ldi. NKVDning 1939-yil 3-iyundagi "Mehnat ko'chkindilari nogironlarini ozod qilish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq ham ma'lum miqdorda "sobiq quloqlar" ozod etildi. Biroq 1941-yilning dastlabki oylarida "quloqlar surguni" da aholining ko'payishi yuz berdi. 1941-yilning birinchi choragida mehnat kuchkindilari 930221 kishidan 960133 kishiga ortdi, 3 oyda 77703 kishi qo'shildi, ulardan tug'ilganlari 5476 kishi edi. GULAG boshlig'i M. Bermanning 1933-yil 20-maydagi maruzasida aytilishicha, O'zbekiston hududidagi mehnat posyolkalaridagi siyosiy komendaturalar ixtiyorida 841 oila yoki 4560 maxsus ko'chkindilar bo'lgan. 1941-yil 1-yanvarda O'zbekistonning 13 ta mehnat posyolkasida yashayotgan 3321 oilada 11974, 1946-yil 1-yanvarda esa 2384 oilada 7348 maxsus ko'chkindilar bo'lgan².

1941-1945-yillarda urush "quloqlar surguni" dagi ahvolga g'oyat katta o'zgarish kiritdi. Avvalida, "quloqlar" va ularning farzandlari armiya safiga olinmadi, nari borsa ular mamlakat ichkarisiga evakuatsiya qilinib mehnat frontlariga safarbar etildi.

1942-yil 11-aprelda Davlat Mudofaa Komiteti sobiq quloqlarni xarbiy xizmatga chaqirishga qaror qiladi. Shundan boshlab "quloqlar surguni" tarixida butunlay yangi bosqich boshlandi.

SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi 1942-yil 22-oktyabrda 002303-sonli buyruq e'lon qildi. Unda bir oy muddat ichida qizil armiyaga chaqirilgan barcha mehnat surgunidagilarni va ularning oila a'zolarini mehnat posyolkalari hisobidan chiqarish, ularga cheklovsiz pasport berish, ular oyligidan 5 foizini ushlab bekor qilish ko'rsatildi. Ammo bu direktiv ko'rsatma kelgunga qadar nemis-fashistlar bosqini ostida qolgan hududlarda ahvol boshacha kechgan edi.

Bu o'rinda Ukrainaning Xerson viloyatidagi ahvolni eslash maqsadga muvofiqdir. Bu viloyatning Goloprstan, Kaxovski va Skadovski tumanlaridagi mehnat posyolkalarida o'zbek, turkman, qirg'iz "quloq" lari yashardi. Goloprstan tumani 1941-yil 11-oktyabrda, Kaxovski tumani 1-sentyabrda, Skadovski tumani 13-sentyabrda dushman bosqini ostida kiradi. Qizil armiya bu uchala tumanni faqat 1943-yil noyabridagina ozod qildi. Xerson shahri esa 1944-yil martidagina ozod etildi. Xerson viloyatidagi mehnat posyolkalaridan 5250 kishi ketib qolgan. Ular sovet qo'shinlari kelguniga qadar o'z mehnat posyolkalarida yashayotgandilar. Chekinayotgan dushman bilan birga ketishgan. Ularning bir qismi ixtiyoriy, bir qismi qo'rqituv yo'li bilan majburan olib ketilgan. 1944-yilning bahor, yoz va kuzi davomida nemislar olib ketgan maxsus ko'chkindilarning ko'pi qaytib kelgan. Ammo Xerson viloyatidagi maxsus ko'chkindilar soni kamayib borgan. Chunki 1944-yil martida 1955 kishi turli sabablar bilan

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 360.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 361.

mehnat posyolkalarini tark etishgan. Ulardan 275 tasi qizil armiyaga chaqirilgan va xarbiy sanoatda ishlash uchun mofaa frontiga yuborilgan¹.

NKVD Xerson viloyati boshqarmasi 1944-yil dekabrda maxsus surgundagilar buyicha bo'lim tashkil etib avvalgi "quloqlar surguni" ni tashkil etishga kirishadi. Urush davrida, sovet qo'shinlari kelgan dastlabki oylarda har tomonga tarqalib ketgan mehnat ko'chkindilari yana maxsus posyolkalarga keltiriladi. 1945-yil aprelida bu viloyat bo'yicha "quloqlar surguni" dagilar soni 5570 kishiga etgandi. Ularning katga bir qismi o'zbek "quloq" lari edi².

SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi bilan SSSR Prokuraturasi 1946-yil 28- sentyabrda "Sobiq quloqlarni, maxsus kuchkindilarni maxsus posyolkalardan ozod qilish to'g'risida" 000868/208 – sonli qo'shma qarorini e'lon qiladi. Unga ko'ra urushda ishtirok etgan, hukumat orden va medallari bilan taqdirlangan, maxsus ko'chkindi bo'lmagan kishilar bilan turmush qurgan sobiq quloq, ayollar mehnat posyolkalaridan ozod qilinadigan bo'ldi. "Sobiq quloqlar" ning yurtlariga qay- tishi keng ommaviy tus oldi. 1949-yil 1-yanvar holatiga ko'ra "quloqlar surguni" da bor yo'g'i 130463 kishi qolgan edi. Shu vaqtda "o'zbek quloqlari" ham istiqomat qilayotgan Xerson viloyatining Goloprstan, Kaxovskiyy va Skadovskiyy tumanlarida hammasi bo'lib 379 "quloq" qolgandi.

1946-1949-yillar mobaynida Xerson viloyati bo'yicha "quloq" likdan ozod bo'lgan yurtdoshlarimizning Vatanga qaytish jarayoni ham tarixiy adabiyotda o'z aksini topmagan mavzulardandir. Ukrainadagi "o'zbek quloqlari" tarixini, jumladan, ularning Vatanga qaytishini aks ettiruvchi manba va materiallar asosan Ukraina, uning Xerson viloyati, shuningdek, Moskvadagi arxivlarda saqlanmoqda.

Xerson viloyati ichki ishlar boshqarmasi arxivida 2818-fond mavjud. Bu fond Xerson viloyatidan 1946-1956-yillarda "maxsus ko'chkindi" likdan ozod etilib o'z yurtlariga qaytganlarning shaxsiy ishlaridir. Bu ishlar alfavit shaklida tartibga solingan. Masalan, ismi va sharifi "A" xarfi bilan boshlangan xujjatda O'zbe- kistonlik "maxsus ko'chkindilar" dan 80 dan ortiq vatandoshlarimizning shaxsiy ishi saqlangan. Bizning hisobimizcha, o'sha fonda 3 mingga yaqin ishdan 1100 ga yaqini O'zbekistondan badarg'a etilgan "quloqlar" va ularning avlodlari ishi ekan. Bu xujjatlarning mohiyati benihoya kattadir³. Ularda kimlar qachon va qayerdan quloq, qilinib badarg'a etilgani, ko'chirib keltirilganlarning hayotiy qismati, oiladagi o'zgarishlar, o'lim, tug'ilish, mehnat faoliyati, qatag'on qurboni bo'lishlari, urush va uning ta'siri, armiyaga chaqirilgani, frontlarda halok bo'lganlar, bolalar, o'smirlar ahvoli, og'ir mehnat, nochor ahvol, etishmovchilik orqali nogiron bo'lganlar, o'sha surgun va nemis-fashistlar bosqini sharoitida ularning tortgan azoblari, urush tugab yurtga qaytgan "sobiq quloqlar" oila- larining ahvoli o'z aksini topgan. Bu xujjatlar o'zbek dehqonlarining o'zga yurtda tortgan zaxmatlari, har bir badarg'a etilgan oila boshiga tushgan musibatlar va ularning ona yurtiga qaytishi haqida umumiy tasavvur beradi. Hozirgi vaqtda to'g'ri yo'lni tanlab olishimizda eng avvalo tariximizni ham bilish talab etiladi. Chunki, tarix insonning ko'zini ochadi, ko'p xatolarning oldini olish imkonini beradi. 1999-yil 16-fevralda Toshkentda ro'y bergan favqulotdagi mudhish hodisa munosabati bilan so'zlagan benihoya ta'sirchan nutqida Prezidentimiz Islom Karimov yana bir bor tariximizga murojaat qilib, bizlar og'ir tarixni ko'rgan xalq, tariximiz nihoyatda og'ir ekanligini ta'kidlab, bu tarix bilan fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni tarbiyalash kerakligini ta'kidladi. Bugungi osoyishta, tinch hayotimizni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni qadrlash va uni himoya qilish, asrash uchun ham kechagi og'ir o'tmishimizni, bugungi farovon turmushimizni atrofimizdagi mamlakatlardagi holat bilan qiyoslash zarurligini vazifa qilib qo'ydi. Yurtboshimizning asarlarida sovetlar davrida Vatanimiz tarixini tadqiq va tahlil qilish, o'rganish,

¹ Шамсутдинов Р., Абдуллаев М. "Кулоқлар" нинг Украинадаги ҳаёти. Туркистон. 1999. 10 март.

² Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 361.

³ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 362.

qariyb 75 yillik ayanchli, achinarli hayotimizni holisona baholash, mushohada qilish bo'yicha ham shunday bir metodologik, nazariy, ilmiy g'oyalar ilgari surildiki, ular hozirgi o'zbek tarixshunosligida muhim voqeadir. Ana shunday og'ir tariximizning o'rganilmagan sohalaridan biri jamoalashtirish va quloqlashtirishdan azob-uqubat chekkan o'zbek dehqonlarining sobiq "quloqlar" ning qismatidir.

Sovet Ittifoqi Qo'mitasining filiali va qo'g'irchoq ijrochisi bo'lgan O'zbekiston firqa tashkiloti 20-30 yillarda Lenin ishlab chiqan va asoslab bergan, ammo amalga oshmaydigan sotsializm kurash rejasini hayotga tadbiiq etish yo'lidan bordi. Bu rejada mamlakatni sanoatlashtirish, jamoalashtirish va "madaniy inqilob" kabi bo'g'inlar markaziy o'rinni egalladi.

20-30 yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining bosh maqsadi respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan iqisodiy poydevordan mahrum qilish va uni Rossiya xo'jalik mexanizmining bir yacheykasiga aylantirishdan iborat bo'ldi. Jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga davlat monopoliyasi o'rnatildi, dehqonlarning yerga bo'lgan xususiy mulkchiligi tugatildi. Zo'ravonlik bilan o'tkazilgan jamoalashtirish siyosati oqibatida ko'plab ishbilarmon, tadbirkor odamlarning ishga, yerga bo'lgan munosabati sovib ketdi. Taniqli tarixchi olim, akademik Raxima Aminova aytganidek, "Bugungi dasturxonimizning g'aribligi ham ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini kollek– tivlashtirish samarasidir"¹.

Erkin mulkchilikning va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining hamma va har qanday ko'rinishlariga barham berildi. Xususiy mulkchilik batamom tugatildi. Uning o'rniga "sotsialistik mulkchilik" deb atalgan yangi mulkchilik joriy etildi. U ikki ko'rinishda: davlat mulkchiligi va jamoa mulkchiligi shaklida ro'yobga chiqarildi. Aslida jamoa mulkchiligi davlat mulki hisoblanardi. Jamoalashtirish siyosatining qishloqlarda amalga oshirilishi natijasida inson va fuqarolarning barcha huquqlari oyoq osti qilindi va ular bundan mahrum etildi. Davlat va jamoa xo'jaliklariga uyushgan qishloq fuqarolari o'z xususiy mulklaridan umuman mahrum bo'ldilar. Davlat va jamoa xo'jaliklari qadimgi quldorlik davlatlaridagi bamisoli qulchilik plantatsiyalarini eslatar edi. Bu xo'jaliklardagi fuqarolar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etildilar. Og'ir va dahshatli mehnat ekspluatatsiyasi xotin-qizlar va yosh bolalarni bir umrga mayib-majruh qildi.

Xo'jaliklarda dehqonlarga oylik to'lamas, mehnat haqqi yozilardi xolos. Ular asosan tomorqa hisobidan kun kechirar edilar. Arzimagan "gunohi" (ishga chiq- maganligi, tirikchilik tashvishlari bilan shug'ullanganligi) uchun ularning tomorqa yerlari tortib olinar, soliq to'lovlari solinar edi. Og'ir kulfat va jabr-zulmlardan qochib ketmaslik uchun dehqonlarga pasport berish tartibi urnatilmadi. Xullas, mustamlakachilik idora tartib usulining bunday daxshatli shaklini hatto chor Rossiyasi ham topa olmagan edi. Jamoalashtirish va quloqlashtirishning fojeali usullaridan biri minglab yurtdoshlarimizni qatag'on vositasi orqali Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qozog'iston, O'zbekistonning o'zidagi dasht-cho'l, o'zlashtirilmagan joylarga surgun qilib, majburiy sur'atda ishlatish edi. Ularning katta qismi yo'l azobi, kasallik, ocharchilik, qaxatchilikdan o'lib ketdi, bir qismi qatag'on qilinib otib tashlandi, shu joylardan 8-10 yil qamoq jazosiga hukm etilib, yana surgun joyidan boshqa iqlim sharoiti nihoyatda og'ir bo'lgan Sibir, Uzoq Sharqqa qamoq jazosini o'tashga badarg'a etildilarki, u joylardan kamdan-kam "mahbus" omon qolib, vataniga qaytgan. Aksariyat ko'pchilik o'sha lagerlarda o'lib ketgan. Jamoalashtirish boshlanishidan to 1937-yilga qadar GULAG tizimidagi lagerlar aholisining ko'pchiligini ayni "quloqlar" tashkil qilgan.

Taniqli olim Xamid Ziyoyev ta'kidlaganidek, mahbuslarning mazkur joylardagi lagerlarida qullik mehnati o'zining yuksak darajasiga ko'tarilgan edi. Rus yozuvchisi, dialektolog, etnograf, leksikograf V. I. Dal (1801-1872) o'zining "Jonli velikorus tilining izohli lug'ati" ("Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika". SPBM, 1912) asarida quloq, so'zini qurumsoq, xasis,

¹ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 361.

o'taketgan ziqna, baquvvat odam deb ta'riflagan. Bu ibora bol'sheviklar targ'ibot tilida boy dehqon, mulkdor, kambag'allarni ezuvchi odam tarzida talqin etildi. Mustabid sovet hokimiyati quloq, iborasini o'zi yoqtirmagan, dushman deb bilgan barcha dehqonlarga nisbatan qo'lladi. Ammo ular orasida ko'pdan-ko'p kambag'allar ham bo'lgan. Ular esa "podkulachnik", ya'ni "quloqlarning dumi", "mushtumzo'rlar tarafdorlari" deb nomlangan. Jamoalashtirish va quloqlashtirish davrida esa "quloq" lar "qishloq burjuaziyasi", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari", "sotsializm dushmanlari", "kolxoz dushmanlari" degan hayratomuz nomlar bilan atalib kelindi. Bu nomlar bilan o'zbek milliy qishloqlaridagi o'ziga to'q, tadbirkor, mulkdor, baobro'li, o'qimishli, diyonatli, insofu imonli odamlarimiz ham atalib kelindi. Ular qatoriga o'rta hol dehqonlar, hatto kambag'allar, hunarmandlar, kosiblar, mayda savdogarlar, din xizmatidagilar ham kiritilgan bo'lib, ularga ham "quloqlarning dumi", "mushtumzo'rlar tarafdorlari" degan nom berildi. Mazkur mavzuning hali ochilmagan qirralari nihoyatda ko'p va kattadir. Uni tadqiq etish, butun bo'y-basti bilan yoritish kelajakning, bir necha tadqiqotchining ishi bo'lmog'i lozim. Hali "changi artilmagan" va ilmiy iste'molga kiritilmagan mahalliy va xorijiy arxiv manbalari, quloqlashtirishdan azob chekib, xorijga chiqib ketgan vatandoshlarimiz, "quloq" likni o'z boshidan kechirgan, hozirda barhayot yurtdoshlarimizning alamlı, achinarlı, lekin tarix uchun qimmatlı, bebaho esdaliklari yozib olinishi, jamlanishi, chuqur va atroflicha tahlil qilinib, ular xalq mulkiga, tarix mulkiga aylantirilishi kerak. Istiqloq sharofati bilan avvalida man qilingan katta miqdordagi hujjat va materiallardan tadqiqotchilar foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Ammo bu keng ko'lamli, katta qamrovli materiallar yakka tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib, ularni keng ilmiy iste'molga solish juda ham mushkul ishdır. "Sovet qishlog'i fojeasi. Jamoalashtirish va quloqlashtirish" mavzui bo'yicha hujjat va materiallarni izlash, topish, o'rganish va ularni keng tadqiqotchilar mulkiga aylantirish maqsadida Rossiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Janubiy Koreya mamlakatlaridagi tarixchılardan 35-40 nafar kishidan iborat xalqaro ilmiy jamoa shakllandi. Bu jamoa 5 jildlik arxiv hujjatlari va materiallari to'plamini tayyorladi. Mazkur to'plamlarda O'rta Osiyoga ham daxldor ayrim xujjatlar e'lon qilingan. Ular dam O'zbekistonda jamoalashtirish va quloqlashtirish jarayonini yangicha qarash nuqtai nazaridan kuzatish imkonini beradi. Ammo O'zbekiston qishloqlarining 20-30 yillardagi umumiy ahvoli, yer islohoti, jamoalashtirish, quloqlashtirishning o'tkazilish jarayoni, uning salbiy, fojeali oqibatlarini butun bo'ybasti bilan, keng va to'laqonli yoritish uchun hozirda manbaviy materiallar deyarli yo'q. Mazkur mavzuga oid ko'plab hujjat va materiallar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Milliy xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi arxivlarida, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qozog'iston, Sibir davlat, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirliklari, boshqarmalari arxivlarida saqlanmoqda va ular hozirgacha ilmiy iste'molga tushgan emas.

Tadqiq qilinayotgan davrda, undan oldin va hozirda dam O'zbekiston aholisining aksariyat katta qismi qishloqlarda yashagani e'tiborga olinsa, o'zbek tarix-shunosligida qishloqlar va undagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy hayotni tadqiq, etish eng dolzarb va kam o'rganilgan masalalardan biri ekaniga ta'kidlash zarur. Bugungi qishloq uning uzoq va yaqin o'tmishini milliy istiqloq mafkurasi, tarixga yangicha yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish, undan zarur xulosa va saboqlar chiqarish qishloqning bundan keyingi taraqqiyotini, istiqbolini, muammolarini anglash imkonini beradi.

O'zbek milliy qishloqlarining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy qiyofasi va an'alarining umumiy manzarasini ilmiy jihatdan gavdalanitirish orqali bu qishloqlarning chor Rossiyasi, so'ngra sovetlar hokimiyati davridagi holatini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 20-30 yillarda o'zbek qishloqlarida o'tkazilgan sotsialistik genotsid sovet imperiyasi markazining ishlab chiqqan siyosati va ko'rsatmasi, talabi, tazyiqi bilan amalga oshirildi.

Bu xususida to'xtalib Prezident Islom Karimov "o'sha davr tarixiga, bo'lib o'tgan voqealarga va bu davrning "ulkan arboblari" hamda "mohir tashkilotchilari" ga nisbatan

munosabat bildirganda bor haqiqatni ochiq aks ettirish kerak deb uylayman”, deb aytgan edi. “Bu narsa, – dedi yana yurtboshimiz, – o’sha odamlarni badnom qilish, ulardan o’ch olish yoki boshqa maqsadlar uchun emas, aksincha, shu yo’l bilan avvalambor yoshlarimiz tarbiyasiga ijobiy ta’sir o’tkazish hayotimiz tarixida haqiqatni qaror toptirishga xizmat qiladi”¹.

Xullas, O’zbekistan qishloqlari va ularda yashagan dehqonlar ommasining 20-30 yillardagi hayoti hasrat va nadomatlar bilan limmolim to’lib toshgan alamli, achinarli davrdir. Bu davrda zo’ravonlik bilan, noqonuniy yo’l bilan amalga oshirilgan jamoalashtirish, u bilan yonma-yon quloqlashtirish siyosati va amaliyotining fojeali oqibatlari o’zbek xalqining har bir farzandi uchun hayot sabog’i bo’lib qolishi tabiiy bir holdir. Ilohim, o’shanday qaro kunlarning istiqloлга erishgan xalqimizning boshidan abadul-abad quchgani rost bo’lsin.

Xulosa

Mustaqillik yillarida tarix fani sohasida ham ulkan ishlar amalgam oshirildi. Namanganda keyingi yillar tarixchi olimlar say’i-harakati bilan ko’plab viloyat, tuman, hududlar tarixi haqida tadqiqotlar yuzaga keldi. Ayniqsa respublika tarixini ayrim hudud, shahar va viloyatlar misolida o’rganish o’tmishni yanada mukammal tarzda yoritish uchun imkoniyat yaratdi. Chunki, istiqloл yillariga qadarviloyat tarixini xolisona tadqiq etishning imkoniyati deyarli yo’q edi. O’zbekiston Respublikasi o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan keyin viloyat tarixini haqqoniy tarzda o’rganish uchun shart-sharoit vujudga keldi. Viloyatlar, xususan Namangan viloyatining sovet davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini qiyosiy tahlil qilgan holda o’rganish tarix fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois, mustaqillik yillarida viloyatning ayrim tumanlari tarixini o’rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin, shuni alohida ta’kidlash kerakki, tumanlar tarixiga bag’ishlangan asarlarning birortasida ushbu mavzuni alohida o’rganish maqsad qilib qo’yilgan emas. 1917-yilning fevral inqilobi ta’sirida Turkistonda xususan, Namanganda ham siyosiy uyg’onish yangi pog’onaga ko’tarildi, o’lka mustaqilligi uchun kurashuvchi ko’plab jamiyat v atashkilotlar tuzildi. Bolsheviklar tuzumining zo’rlilik bilan o’rnatilishiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida aholining turli tabaqalari ishtirok etdi. XX asrning 30-yillari boshlarida qishloq xo’jaligida majburiy jamoalashtirishga qarshi xalq ommasining ko’plab ommaviy norozilik chiqishlari bo’lib o’tdi. Ayrim tumanlarda jamoa xo’jaliklari tashkil etish ancha qiyinchiliklar bilan amalgam oshirildi. Jamoalashtirishga qarshi chiqqanlarni qamash, surgun qilish, ularga “quloq” tamg’asini yopishtirish avj oldi.

XX asrning 30-yillaridagi ommaviy qatag’onlar Namanganlik ziyolilarni ham chetlab o’tmadi. Namanganlik ziyolilardan Ibrat, U. Nosir, So’fizoda, R. Mo’min, S. Xoldorova I. Xidiraliyev, M. Ermatov, N. Qoriyev va boshqalar qatag’onchilik domiga toritildilar.

Tadqiqot natijalari va tahliliga ko’ra, biz tomondan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Turkistonning barcha hududlarida bo’lgani kabi Namangan viloyatida ham sovet tuzumi mahalliy aholining hohish-irodasiga zid ravishda qurolli kuchlar, zo’rlilik bilan o’rnatildi. Shu sababli vatanparvar kuchlar uzoq yillar davomida yurt ozodligi uchun oshkora va yashirin ish olib bordilar.
- Majburiy jamoalashtirish va surgun yillarida viloyatlar hududida amal qililib kelingan azaliy xo’jalik an’analri buzildi.
- Xususiy mulk va iqtisodiy tadbirkorlikning har qanday ko’rinishi ta’qib ostiga olindi.

¹ “Туркистон” газетаси, 1999 йил, 2 февраль.

- Ko`plab Namanganlik vatanparvarlar badnom etildi, uzoq o`lkalarga surgun qilindi.
- Mustaqillik yillarida esa viloyatlarda keng ko`lamdagi ijtimoiy - iqtisodiy tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

Tadqiqot natijalaridan ma`lum bo`lishicha Namanganda sovetlarnigining jamoalashtirish, quloqlashtirish va surgun siyosati ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o`rin tutishiga qaramay, bu davrlarni hali yetarli tarixchi olimlar tomonidan o`rganilmagan, hozirga qadar e`lon qilingan maqolalar, adabiyotlarda hali to`laqonlicha yoritilmagan.

Shu nuqtai nazardan ham Namangan hududida amalga oshirilgan jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun va qatag`on siyosati mohiyatini yanada chuqurroq tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Bizningcha mazkur masala o`z tadqiqotchilarini kutib qoladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

I. Rasmiy manbalar.

- 1.1 Каримов И. А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. 2 - ж. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 374 б.
- 1.2 Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1999. – 31 б.
- 1.3 Шу муқаддас юртга ёруғ кунлар келтириш ҳар биримизнинг инсоний бурчимиздир // Озод ва Обод ватан эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Асарлар. – Т.: Ўзбекистон, 2000 – Т. 8. – 528 б.
- 1.4 Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эбтиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 509 б.
- 1.5 Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 173 б.
- 1.6 Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент: 2011. – 439 б.

II. Arxiv hujjatlari

- 2.1 Наманган вилоят давлат архиви (НВДА)
 - 13-фонд, Наманган шаҳар ижроия қўмитаси;
 - 62-фонд, Наманган туман пахтачилик қўмитаси;
 - 267-фонд, Шомирбоев Мирсаиднинг шахсий;
 - 796-фонд, Корхона, ташкилот ва муассасаларнинг тарихи бўйича маълумотлар жамланмаси;

III. Adabiyotlar.

- 3.1 Абдуллаев О. Наманган вилояти (табиати, аҳолиси, хўжалиги). -Наманган: Наманган вилояти ҳокимияти ноширлик бўлими, 1995. – 150 б.
- 3.2 Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти – Т.: Маънавият, 2000. – 168 б.
- 3.3 Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. – Т.: Адабиёт ва саъат, 2000. – 176 б.
- 3.4 Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. - Чуст : Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. – 180 б.
- 3.5 Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар (1917 - 1924 йиллар). – Т.: Университет, 2005. – 200 б.
- 3.6 Усманов И. Қатағон қурбонлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 223 б.
- 3.7 Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Т.: Шарқ, 2003. – 542 б.

- 3.8 Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари – Т.: Шарқ, 2001. – 367 б.
- 3.9 Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. - Т.: Шарқ, 2005. – 335 б.
- 3.10 Шамсутдинов Р Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарқ, 2001. –413 б.
- 3.11 Қосимов Ў. Кора кўзойнак билан ёзилган тарих. - Наманган, 1993. – 104 б.
- 3.12. Қосимов Ў. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990. – 56 б.
- 3.13 Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар: Жўраев М. ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2000. – 688 б.
- 3.14 Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи / тузувчилар: Жўраев М. ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2000. – 560 б.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 4.1 Хайдаров З. У. Наманган вилоятининг совет даври ва мустақиллик йилларидаги ижтимоий - иқтисодий ва маданий тарихи: қиссий таҳлил: Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2007. – 165 б.

V. Davriy matbuot materiallari

- 5.1 Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар ҳаёти // жамият ва бошқарув. – Т.: 2004. – № 4. – Б.21-23.
- 5.2 Шамсутдинов Р. Мудҳиш ҳукмлар, фожеали тақдирлар фожеали тақдирлар // Жамият ва бошқарув. – Т., 2003. - № 2. - Б. 31-32.
- 5.3 Юнусова Х. Совет қатағон сиёсатининг сўнгги босқичи тарихидан // Ўзбекистон тарихи. – Т., 2003. – № 3. – Б. 43.
- 5.4 Хайдаров М. Туркистон иқтисодиётида “Ҳарбий коммунизм” сиёсати // Ўзбекистон тарихи . – Т., 2003. – № 3. – Б. 31-33.